

R. G. PARDAYEV, SH. B. SHAMSIYEVA

CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASHDA SIFAT TIZIMI



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**PARDAYEV RO‘ZIBOY GULMUROD O‘G‘LI
SHAMSIYEVA SHAXNOZA BAXODIROVNA**

**“CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI QAYTA
ISHLASHDA SIFAT TIZIMI”**

o‘quv qo‘llanma

Oliy o‘quv yurtlarining 60811600-Chorvachilik mahsulotlarini
qayta ishlash texnologiyasi bakalavriat
ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma
sifatida tavsiya etilgan.

**Toshkent - 2023
“Fan ziyosi” nashriyoti**

UO'K: 324.435.345.12
KBK: 36.92(O'zb)4

664
P 21


CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASHDA SIFAT TIZIMI. o'quv qo'llanma **PARDAYEV RO'ZIBOY GULMUROD O'G'LI, SHAMSIYEVA SHAXNOZA BAXODIROVNA** / – Toshkent, "Fan ziyosi" nashriyoti, 2023, 160 bet.

Bakalavrlar tayyorlash uchun mo'ljallangan "Chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlashda sifat tizimi" o'quv qo'llanmada mahsulot sifatini boshqarishning ilmiy asoslari, jahonda sifat nazorati evolyutsiyasi bosqichlari, fundamental va tizim tuzuvchi hujjatlar, oziq-ovqat sifatining nazariy asoslari o'rganilgan. Sifat tizimi, mahsulotlarning hayotiy siklining barcha bosqichlarida sifat tizimiga uslubiy yondashuvlar, mahsulot sifatini boshqarishning asosiy va ilg'or vositalari va usullari, shuningdek, sifat mukofotlari, mukofotlar va sifat sohasidagi yutuqlarning boshqa tan olinishi. Oziq-ovqat sanoati (Oliy ta'lim mutaxassislari tayyorlashning barcha darajalari bakalavrlar uchun:). "Chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi" ta'lim yo'nalishi talabalari, magistrlar, ilmiy-tadqiqotchilar, qayta ishlash korxonalari mutaxassislari uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

- Shukurov I.** Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, "Servis" kafedrasi dotsenti, texnika fanlari nomzodi
- Safarov U.** SamDVMChBU "Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlash texnologiyasi" kafedrasi katta o'qituvchisi, texnika fanlari nomzodi.

ISBN: 978-9910-743-6-4-1



АННОТАЦИЯ

В методическом пособии «Система качества при переработке животноводческой продукции» для подготовки бакалавров рассматриваются научные основы управления качеством продукции, этапы эволюции контроля качества в мире, основополагающие и системообразующие документы, теоретические основы управления качеством пищевых продуктов, методологические подходы к управлению качеством на всех этапах жизненного цикла продукции, базовые и новейшие инструменты и методы управления качеством продукции, а также премии в области качества, награды и другие признания достижений в области качества. Пищевая промышленность» (для всех уровней подготовки специалистов высшего образования: бакалавриат). Предназначен для бакалавров по направлениям подготовки и научным специальностям: «Технология переработки животноводческой продукции» а также для производителей продуктов питания, потребителей и специалистов работающих в органах государственного надзора.

ANNOTATION

The methodological guide "Quality System in the Processing of Livestock Products" for the preparation of bachelors examines the scientific foundations of product quality management, stages of the evolution of quality control in the world, fundamental and system-forming documents, theoretical foundations of food quality management, methodological approaches to quality management at all stages of the life cycle products, basic and advanced tools and methods of product quality management, as well as quality awards, awards and other recognition of achievements in the field of quality. Food industry" (for all levels of training of higher education specialists: bachelor's degree). Intended for bachelors in the areas of training and scientific specialties: "Technology of processing of livestock products" as well as for food producers and specialists working in government supervisory authorities.

K I R I S H

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi sohasida olib borilayotgan islohotlar va ijtimoiy o'zgarishlar o'z samarasini ko'rsatmoqda. Buni so'nggi yillarda qabul qilinayotdan hujjatlar va davlat dasturlarida yaqqol ko'rish mumkin.

Aholini arzon va sifatli sut hamda go'sht mahsulotlari bilan barqaror ta'minlashni yanada yaxshilash maqsadida, keyingi yillarda bir qator tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan «Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida», «...Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini 1,5-2 barobarga oshirish, chorva mollari bosh sonini ko'paytirish va mahsuldorligini oshirish bo'yicha yangi loyihalarni amalga oshirish, aholi xonadonlaridagi 2,4 mln bosh (52 foiz) sigir va qochirish yoshidagi tanalarni sun'iy urug'lantirish, chorvachilik ozuqa bazasini mustahkamlash, ozuqabop ekinlarning serhosil navlarini ko'paytirish, yil davomida 2-3-marta hosil olish va hosildorlikni 1,2 barobarga oshirish» kabi muhim vazifalar belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevralda "Chorvachilikni yanada rivojlantirish va chorva ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-121-son qarori qabul qilindi. Mazkur qarorda qayd etilishicha, 2022—2024-yillarda 310 ta paxta-to'qimachilik, g'allachilik va sholichilik klasterlarining chorvachilik komplekslarida 751 ming 916 bosh qoramol yetishtiriladi. 2022—2023-yillarda har bir tumanda kamida 1 tadan go'sht va sut yetishtiruvchi va qayta ishlovchi korxonalar aholiga kooperatsiya usulida chorva yetkazib beradi, yetishtirilgan mahsulotlar qayta ishlab sotiladi.

Respublikamizda chorvachilikni rivojlantirish va shu asosda aholini chorvachilik mahsulotlari bilan to'liq ta'minlashga e'tibor berilayotgani bejiz emas. Yurtimizda shu kabi ishlarning izchil olib borilishdan asosiy maqsad aholining chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabini yanada to'laroq qondirish, qolaversa mamlakatimizda go'sht va sut mahsulotlarini importini kamaytirish hisobiga, eksport salohiyatimizni oshirishga ham hissa qo'shishdan iborat.

"Chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlashda sifat tizimi" fanni o'qitishdan maqsad - Chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlashda sifat tizimini joriy etilishi, xalqaro me'yoriy hujjatlarga asoslangan sifatli mahsulotlarni yetkazib berish, yangi mahsulot ishlab chiqarish

texnologiyalarini joriy etishda muhim nazorat nuqtalari va innovatsion hamda texnologik xavflarni baholash, sifat menejmenti tizimlarining zamonaviy ko'rinishlarini xalqaro standartlar asosida ishlab chiqarishning muayyan sharoitlariga moslashtirishga, xavfni baholash va mahsulotlar xavfsizligini ta'minlash choralarini belgilash bilan tanishtirishdan iboratdir.

Ushbu fanning vazifasi go'sht va sut mahsulotlariga bo'lgan talablar, go'sht va sut mahsulotlarini saqlash va qayta ishlashning nazariy asoslarining afzallik va kamchilik tomonlarini o'rgatishdan iborat. Shuningdek, amaliy mashg'ulot mavzulari aniq ishlab chiqarish sharoitidagi hisobotlarga yo'naltirilgan bo'lib, mavzularni talaba o'zlashtirishi bilan mustaqil ishlay olish ko'nikmasiga ega bo'ladi.

Ayni paytda, mamlakatimizda chorvachilikdan olingan mahsulotlarni saqlash va ularni qayta ishlash sohasida amalga oshirilayotgan ishlar o'zining dolzarbligi bilan ahamiyatlidir.

1-amaliy mashg'ulot.

CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASHDA SIFAT TIZIMI TO'G'RISIDAGI UMUMIY TUSHUNCHALAR

Mashg'ulot rejasi:

1.1. Chorvachilik mahsulotlari xavfsizligini baholashda sifat tizimini joriy etilishi.

1.2. Chorvachilik mahsulotlari xavfsizligini ta'minlashda integrasiyalangan sifat tizimi.

Mashg'ulotning maqsadi: Chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlashda sifat tizimi to'g'risidagi umumiy tushunchalarini o'rganish

Nazariy qism. Tayyor bo'lgan iste'mol tovarlari, ya'ni oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini baholash, (ishlab chiqarish sharoitida) fizik-kimyoviy, mikrobiologik va organoleptik kabi asosiy uchta usuldan foydalaniladi.

Organoleptik (sensorli) usul. Oziq-ovqat mahsulotining hidi, ta'mi, konsistensiyasi, strukturasi, rangi, o'lchami, shakli, tashqi ko'rinishi va yuzasi holatini baholashdan iboratdir. Bunday tekshirib ko'rish, ta'mni sezish va hid bilish a'zolari yordamida amalga oshiriladi va hech qanday maxsus jihoz, qimmatbaho reaktivlarga ehtiyoj sezilmaydi. Oziq-ovqat mahsulotlariga uni organoleptik baholash natijasida beriladigan baho xolisligi faqat brakerni (ushbu tahlilni amalga oshirayotgan shaxs) yetarlicha tajribaga ega ekanligi bilan belgilanadi. Ushbu savol bo'yicha maxsus adabiyotlarni o'rganish (sensorli tahlilni o'tkazish bo'yicha ko'rsatmalar va ballar berish jadvallari) va doimiy amaliy faoliyat orqali qisqa fursatda brakerni tegishli tayyorgarligiga erishish mumkin. Shunday qilib, organoleptik tekshirishning afzalligi, uning oddiyligi va uni amalga oshirish uchun kam vaqt hamda ko'p bo'lmagan vositalar zarurligi hisoblanadi.

Organoleptik tahlilning asosiy kamchiligi bo'lib, olinadigan axborot ko'lamining keng bo'lmasiligi hisoblanadi.

Birinchidan, bu ijobiy (yuqori) organoleptik baholashga tegishli bo'lib, sensorik ko'rsatkichlari bo'yicha barcha talablarga javob beruvchi mahsulot, shu asosda nafaqat unga xos bo'lgan to'la ozuqaviy qiymatga ega ekanligi, balki umuman olganda, sog'liq uchun xavfsiz ekanligi tan olinishi mumkin emas. Buni shunday talqin qilish mumkinki, qayta ishlangan mahsulotning tarkibida inson organizmi uchun xavfli bo'lgan ba'zi moddalarni (masalan, radionuklidlar yoki og'ir metall tuzlari) mavjud bo'lishi va mahsulot qiymatini belgilovchi qator zaruriy kimyoviy

birikmalarni (masalan, vitaminlar) bo'lasligi, ko'pgina hollarda uni organoleptik baholaganda, bir qator shunga o'xshash sifat ko'rsatkichlari hech qanday aks etmaydi.

Ikkinchidan, ishlab chiqarilgan mahsulot sifatini organoleptik baholash sifatli tavsifga ega bo'lib, uni iste'molchi sog'ligi uchun xavfsizligi yoki ozuqaviy to'yimliliigi haqida yakuniy xulosa qabul qilish, hozirda qator miqdoriy ko'rsatkichlarni (mahsulotda modda miqdorini ma'lum qiymatdan "kam emas" yoki "ko'p emas"ligi) jalb etishni taqozo etadi.

Mikrobiologik uslublarni qo'llash bugungi kunda oziq-ovqat korxonalarida tayyor mahsulotni nazorat etish jarayonidagi ahamiyati, ishlab chiqariladigan mahsulot turiga bog'liq bo'ladi.

Bakteriologik tekshirish yoki tahlil qilish - inson hayoti uchun xavfli bo'lgan patogen (kasallik tug'diruvchi) mikroorganizmlar bilan zararlanishi mumkin bo'lgan xomashyoni, qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi barcha korxonalar uchun, ularni ishlab chiqarish quvvatiga bog'liq bo'lmagan holda majburiy hisoblanadi. Bunda faqat mayda quvvatli korxonalar uchun xususiy bakteriologik laboratoriyani bo'lasligiga va mikrobiologik tahlillarni shartnomaga ko'ra akkreditasiya qilingan laboratoriyalarda o'tkazishga ruxsat beriladi. Agar mikrobiologik tahlillar, korxonaning ishlab chiqarish laboratoriyasida amalga oshirilsa, shunga alohida ahamiyat berish zarurki, ular faqat tegishli soha mutaxassislari tomonidan o'tkazilishi zarur.

Shunday qilib, mikrobiologik uslublar oziq-ovqat sanoatining qator tarmoqlarida tayyor mahsulotni tekshirishda, uni iste'molchilar uchun xavfsizligini aniqlashda katta ahamiyatga ega. Biroq, mikrobiologik uslublar guruhi bevosita mahsulotlar kimyoviy tarkibini aniqlash bilan bog'liq bo'lgan, ozuqaviy qiymatni baholashga nisbatan ancha kam ma'lumotlar olinishini ta'minlaydi. Bunday baholashni faqatgina tayyor mahsulotni fizik-kimyoviy tahlil etish yordamida amalga oshirish mumkin.

Fizik-kimyoviy tekshirish. Bu usul mahsulotning fizik-kimyoviy xususiyatlarini bevosita tadqiq etishni, jumladan undagi foydali va zararli elementlar va birikmalar miqdorini aniqlashni taqozo etadi.

Quyidagi tekshirish usullari, ya'ni, organoleptik, mikrobiologik va asosan fizik-kimyoviy uslublar yordamida aniqlangan ko'rsatkichlar to'plami tahlil etilayotgan mahsulotni ozuqaviy qiymati va xavfsizligi to'g'risida asosli xulosa chiqarish imkonini beradi. Ozuqaviy qiymat va xavfsizlik har bir oziq-ovqat mahsulotini asosiy sifat mezonlari hisoblanadi.

Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va sifatli ovqatlanishni tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan amaliy ishda ozuqaviy, biologik va energetik qiymat kabi tushunchalar mavjud. Barcha ushbu tushunchalar oziq-ovqat mahsulotlarini ularni kimyoviy tarkibiga bog'liq holda foydaliligini tavsiflaydi va alohida ozuqaviy moddalarni inson organizmidagi metabolik o'zgarishlar xususiyatlariga asoslanadi.

“Ozuqaviy qiymat” tushunchasi eng keng umumiy tushuncha hisoblanadi. U mahsulotni, undagi qator moddalar miqdorini baholash bilan bog'liq bo'lgan, foydali xususiyatlarini to'liq ko'lamini aks ettiradi.

“Biologik qiymat” va “energetik qiymat” ko'proq xususiy tushunchalar hisoblanadi. Ma'lumki, oziq-ovqat bilan inson organizmiga uni normal faoliyati uchun zarur bo'lgan kimyoviy moddalar kelib tushadi. Bu moddalar odam organizmini energetik sarflarining tiklashni ta'minlaydi va yangi hujayra strukturalarini qurish manbalari sifatida xizmat qiladi. Bular jumlasiga, muhim hayotiy funksiyalarni boshqarishning murakkab jarayonlarida ishtirok etuvchi birikmalari ham kiradi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, inson organizmida ushbu moddalarni (suv, mineral tuzlar, ba'zi past molekulyar organik birikmalardan tashqari) oziq-ovqat mahsulotlarida mavjud bo'lgan shakllari sifatida foydalanilishi kuzatilmaydi. Dastlab, ularni ovqat hazm qilish traktida mayda strukturali komponentlarga parchalanishi ro'y beradi. So'ngra bu komponentlar turli organ va to'qimalarda kechayotgan reaksiyalarga kirishib organizm uchun zarur materiallar hosil qiladi. Biroq, shunday katta kimyoviy birikmalar guruhi borki, ularni inson organizmi mustaqil ravishda sintez qila olmaydi va ularni faqatgina oziq-ovqat mahsulotlari bilan olishi mumkin. Bunday moddalar essensial (almashtirilmaydigan) deb nomlanadi.

Inson organizmida barcha hayotiy muhim funksiyalarni normal holatini saqlash uchun, oziq-ovqat bilan doimiy ravishda quyidagi beshta asosiy guruh moddalarini qabul qilishi zarur:

- Uglevodlar, oqsillar va yog'lar;
- Aminokislotalar (almashtirilmaydigan);
- Yog' kislotalari (almashtirilmaydigan);
- Barcha turdagi vitaminlar;
- Makro va mikroelementlar.

Oziq-ovqat mahsulotlari bilan qabul qilingan oqsillar, organizmda plastik va energetik funksiyalarni bajaradi. Oqsillar almashtirilmaydigan va almashtiriladigan aminokislotalar manbai hisoblanib, ular inson

organizmidagi barcha oqsillarni, shuningdek, ko'pgina boshqa biomolekulalarni biosintez qilinishida qurish material sifatida foydalaniladi. Aminokislotalarni uglevod skletini oksidlanish jarayonlari energiya ajralishi bilan kechadi va u organizmni umumiy enregetik zahirasida muhim qo'shimcha hisoblanadi. Oziq-ovqat bilan kelib tushgan 1 g oqsilni oksidlanishi natijasida (oqsilni o'rtacha hazm bo'lishi taxminan 84,5% ekanligini hisobga olganda) taxminan 4,1 kkal energiya ajraladi. Odam organizmini oqsillarga bo'lgan o'rtacha kunlik ehtiyoji 85-90 g ni tashkil qiladi.

Uglevodlarni oksidlanishida oqsillardagi kabi energiya (taxminan 4,1 kkal) ajralib chiqsada, uglevodlarni organizmda parchalanishi energiyani asosiy qismini hosil qilinishi bilan boradi. Buni ovqatlanish ratsionida uglevodli mahsulotlar ulushini yuqoriligi bilan izohlash mumkin. Uglevodlar energetik almashinuvda ishtirok etishidan tashqari, ko'pgina hujayra strukturalarini biosintez qilinishida old moddalar sifatida muhim ahamiyatga kasb etadi. Uglevodlar sinfiga ozuqaviy tolalar: pektin, kletchatka, gemilsellyuloza va boshqa shu turdagi moddalar ham tegishlidir.

Ozuqaviy tolalar odam organizmida hazm qilinmasligi va metabolizmida ishtirok etmasligiga qaramasdan oziq-ovqatni fiziologik muhim komponentlari hisoblanadi, chunki ular ichak devorlarini normal qisqarishida, shuningdek zahar va toksinlarni sorbsiya qilinishida o'ta zarurdir. Odamni uglevodlarga bo'lgan o'rtacha kunlik ehtiyoji 400-500 g ni tashkil etadi.

Oziq-ovqat mahsulotlaridagi yog'lar (trigliseridlar) asosiy energiya manbayi hisoblanadi. Yog'larni o'rtacha hazm bo'lishi 94 % ni tashkil etilishini hisobga olgan holda, oziq-ovqatdagi 1 g yog'ni oksidlanishida ajralayotgan energiya 9,3 kkal ni tashkil etishi aniqlangan. Bundan tashqari, yog'lar xolesterin va boshqa steroidlarni sintez qilinishi uchun uglerod atomlarini manbayi hisoblanadi. Inson organizmining yog'larga bo'lgan kunlik ehtiyoji 80-100 g ni tashkil etadi.

Vitaminlar. Vitaminlar organizmda kechadigan murakkab metabolik jarayonlarda faol ishtirok etib, qator muhim biokimyoviy funksiyalarni bajaradi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, biokatalizatorlar, fermentlar ishtirokida organizmda kechadigan ko'pgina reaksiyalar, har bir shunday katalitik reaksiyalar uchun ma'lum bo'lgan vitaminlarni (koferment) ishtirokisiz kechmaydi. Vitaminlar organizm uchun unchalik katta bo'lmagan miqdorlarda zarur bo'ladi. Vitaminlarni organizm uchun

zarur bo'lgan miqdorlari milligrammda, hattoki mikrogrammda ifodalanadi.

Mineral moddalar inson organizmida turli vazifalarni bajaradi. Ular suyak va tishlarni strukturaviy komponenti hisoblanadi, qon va to'qimalardagi suv-tuz ballansini me'yorida saqlashda ishtirok etishadi va ko'pgina fermentativ reaksiyalar kechishini ta'minlaydi. Mineral moddalar makro- va mikroelementlarga bo'linadi. Makroelementlar (magniy, kalsiy, fosfor va boshqalar) organizmga gramm miqdorlarida talab qilinsa, mikroelementlarga (mis, temir, rux va boshqalar) bo'lgan talab esa milligramm yoki hatto mikrogrammlarda o'lchanadi.

Shunday qilib, oziq-ovqat mahsulotlarini sifatini baholash va foydaliligini tavsiflash uchun "ozuqaviy qiymat" tushunchasi kiritilgan. Ozuqaviy qiymat mahsulot xususiyatlari majmuasi bo'lib, uni organizmni ozuqaviy moddalar va energiyaga bo'lgan fiziologik ehtiyojlarini qondira olish qobiliyatini belgilaydi. Ozuqaviy qiymat avvalo oziq-ovqat mahsulotining kimyoviy tarkibiga bog'liq.

Mahsulotlarning ozuqaviy qiymati, mahsulotni eng muhim har bir komponentlarini oqilona ovqatlanish formulasiga mos kelish foizini (integral skor) hisoblash yo'li bilan aniqlanadi.

Oqilona ovqatlanish deyilganda, organizmni nafaqat yetarli miqdorda energiya, oqsil, yog', uglevodlar, mineral moddalar, vitaminlar va boshqa almashtirilmaydigan ozuqaviy moddalar bilan ta'minlanganligi, shuningdek bu moddalarni oqilona nisbatlarda kelib tushishi ham tushuniladi. Masalan, oqilona ovqatlanish formulasiga ko'ra oqsil, yog', uglevodlar o'rtasidagi 1:1:4, o'simlik va hayvon yog'lari o'rtasidagi 1:3, kalsiy va fosfor o'rtasidagi 1:1,5÷1,8, kalsiy va magniy o'rtasidagi 1:0,6, oqsil va C vitamini o'rtasidagi 1:1000 (ya'ni 1 g oqsilga 1 mg C vitamini kelib tushishi kerak) va hokazo nisbatlar optimal hisoblanadi.

Integral skorni energiya birliklarida ifodalashda ovqatlanishning eng muhim omillarini hisoblash mahsulotni ma'lum energetik qiymatida (300 kkal (1255 kJ) yoki 1000 kkal (1255 kJ)) amalga oshiriladi. Hisoblash uchun 300 kkal (1255 kJ) eng qulay bo'lib, u kunlik energiya sarflarining o'rtacha 10% ni tashkil etadi.

Energetik qiymat. Oziq-ovqat mahsulotlarining energetik qiymati, ushbu mahsulot tarkibiga kiruvchi birikmalarni organizmdagi biologik oksidlanish jarayonda ajralib chiqayotgan energiya miqdorini tavsiflovchi ko'rsatkich hisoblanadi.

Energetik qiymat ko'rsatkichi 100 g mahsulot (uni iste'mol qilinadigan qismi) uchun hisoblanadi va odatda, kilokaloriyalarda ifodalanadi.

Inson organizmdagi biologik oksidlanishda yuqorida ta'kidlanganidek, 1 g oqsildan 4,1 kkal, 1 g yog'dan 9,3 kkal va 1 g uglevodlardan 4,1 kkal energiya ajralib chiqadi.

Mahsulotlar energetik qiymatini hisoblash uchun undagi oqsil, yog' va uglevodlar miqdorini tegishli energetik qiymat koeffitsiyentiga ko'paytirish kerak. Retseptura asosida ishlab chiqariladigan mahsulotlar (taomlar, qandolat mahsulotlari va boshqalar) energetik qiymatini hisoblash, shu mahsulot retsepturasi va uni ishlab chiqarish texnologik ko'rsatmasiga asoslanadi. Bu holda retsepturada ko'rsatilgan har bir komponentni energetik qiymati va sarfi hisobga olinadi. Retsepturadagi alohida komponentlar energetik qiymatini hisoblash uchun ularni kimyoviy tarkibi, "Химический состав пищевых продуктов" (Skurixin I.I. va Volgarov M.N. taxriri ostida, M, 1987) kitobidagi jadvallar asosida aniqlanishi zarur. So'ngra komponentlardagi tegishli oqsil, yog' va uglevodlar miqdori haqidagi ma'lumotlar qo'shiladi. Taomlar energetik qiymatini hisoblashda ularni kimyoviy tarkibi haqidagi bu olingan ma'lumotlarga oziq-ovqat mahsulotlariga pazandalik ishlov berishdagi ozuqaviy moddalarni yo'qolish tuzatishlari kiritiladi. Ozuqaviy moddalarni yo'qolish tuzatishlari aralash ovqatlanish ratsionida o'rtacha oqsillar uchun 6%, yog'lar uchun 12% va uglevodlar uchun esa 9% qabul qilinadi. Bu holda energetik qiymatni hisoblash quyidagi formula bo'yicha amalga oshiriladi:

Hozirgi vaqtda oziq-ovqat mahsulotlari assortimentini uzluksiz kengayishi, ovqatlanish xarakterini o'zgarishi, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash va taqsimlashda yangi texnologik jarayonlarni tadbiq etilishi, ko'p miqdorda turli kimyoviy birikmalarni ishlatilishi va boshqalar ro'y bermoqda. Bularni hammasi ko'p hollarda inson organizmi uchun befarq emas. Toksik moddalarni oziq-ovqat mahsulotlariga kelib tushishi nuqtai nazaridan ma'lum xavflarni atrof-muhitni sanoat chiqindilari bilan ifloslanilishi, shuningdek qishloq xo'jaligida ximikatlar ishlatilishini o'sib borishi yuzaga keltirmoqda.

Nazorat savollari:

1. Organoleptik (sensorli) tahlilga tushuncha bering?
2. Mineral (neorganik) moddalar bu?

3. Oziq-ovqat bilan qabul qilingan oqsillar organizmda qanday funksiyalarni bajaradi?
4. Mahsulotlar energetik qiymati qanday hisoblanadi?
5. Fizik-kimyoviy tahlil nima?

Test savollari

1. Organoleptik (sensorli) usul nimalarni baholashdan iboratdir?

- A. Oziq-ovqat mahsulotining hidi, ta'mi, konsistensiyasi, strukturasi, rangi, o'lchami, shakli, tashqi ko'rinishi va yuzasi holatini
- B. Oziq-ovqat mahsulotining hidi, ta'mi, strukturasi, rangi, o'lchami, shakli, tashqi ko'rinishi va yuzasi holatini
- D. Oziq-ovqat mahsulotining hidi, ta'mi, konsistensiyasi, rangi, o'lchami, shakli, tashqi ko'rinishi va yuzasi holatini
- E. Oziq-ovqat mahsulotining hidi, konsistensiyasi, strukturasi, rangi, o'lchami, shakli, tashqi ko'rinishi va yuzasi holatini

2. Oziq-ovqat mahsulotlari bilan qabul qilingan oqsillar qanday vazifalarni bajaradi?

- A) organizmda plastik va energetik funksiyalarni
- B) organizmda qurilish va energetik funksiyalarni
- D) organizmda plastik va moddalarni tashish funksiyalarni
- E) organizmda faqat energetik funksiyalarni

3. Oqsilni o'rtacha hazm bo'lishi taxminan necha % ni tashkil etadi?

- A) 84,5%
- B) 56.8%
- D) 96%
- E) 100%

4.1 g oqsilni oksidlanishi natijasida necha kkal energiya ajraladi?

- A) 4.1
- B) 4.9
- D. 4.5
- E. 4.0

5. Inson organizmining yog'larga bo'lgan kunlik ehtiyoji necha g ni tashkil etadi?

chiqarish korxonasi tashkil etilishi ko'zda tutilgan. Bu esa yiliga ko'shimcha ravishda 100 ming tonna oziq-ovqat sanoati mahsulotlari, 130 xildagi yangi mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga ko'yish imkonini beradi.

Mazkur loyihalarda yangi texnologiyalarni joriy etish va xomashyoni chuqur qayta ishlashga alohida e'tibor beriladi hamda ularning aksariyati qishloq joylarida amalga oshiriladi. Ya'ni, qishloq aholisi uchun minglab yangi ish o'rinlari yaratiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda oziq-ovqat maqsulotlarini qayta ishlashga mo'ljallangan 10 mingdan ortiq korxona faoliyat yuritmoqda. Bu ko'rsatkich 1991 yilga nisbatan 10 barobardan ham ortiqroqni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2014-yil 6-iyunda "O'zbekistonda oziq-ovqat dasto'rini amalga oshirishning muhim zahiralari" mavzusida xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqida "Yer yuzi aholisining tez ko'payib borayotgani bilan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sish imkoniyatlarining cheklanganligi o'rtasidagi tafovut oziq-ovqat dasturini hal etish masalasini yildan-yilga keskinlashib borayotganining asosiy sababi ekani haqida bugun ortiqcha gapirishning hojati yo'q, deb o'ylayman" deb ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari ushbu xalqaro anjumanda mazkur sohada O'zbekistonning pozitsiyasini bildirdi va aholining sog'lom, kaloriyali ovqatlanishi masalasiga alohida e'tibor qaratdi. Bu o'rinda, birinchi navbatda, respublikamiz tabiiy iqlim sharoiti qulay ekanligi, mamlakatimiz aholisini kaloriyali oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash uchun yetarli shart-sharoitlar mavjudligi ta'kidlangan edi.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash O'zbekistonning mustaqilligini, mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni ta'minlashning garovi hisoblanadi.

Prezidentimizning 2015-yil yakunlari va 2016-yildagi iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi yig'ilishidagi ma'ruzasida keyingi 5 yil davomida paxta etishtirish hajmini 350 ming tonnaga qiskartirish, sabzavot, kartoshka, ozuqa ekinlarini ko'paytirish, bog' va uzumzorlar barpo etish belgilandi.

Ekin maydonlarining optimallashtirilishi va zamonaviy agrotexnologiyalarning joriy etilishi natijasida 2020-yilda boshqoli don etishtirishni 16,4 foizga oshirib, uning hajmini 8 million 500 ming

tonnaga etkazish, kartoshka etishtirishni 35 foizga, sabzavotni 30 foizga, meva va uzumni 21,5 foizga oshirish ko'zda tutilmokda. Bundan tashqari, go'sht, sut, tuxum hamda baliq etishtirishni ham sezilarli darajada ko'paytirish rejalashtirilgan.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yilning 18-fevralidagi PQ-2492-sonli «Respublika oziq-ovqat sanoatini boshqarishni tashkil etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qaroriga asosan "O'zbekoziqovqatxolding" kompaniyasi tashkil etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 12-apreldagi "Meva-sabzavot, kartoshka va poliz mahsulotlarini harid qilish va ulardan foydalanish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2520-son qarori ijrosini ta'minlash yuzasidan Davlat statistika qo'mitasi tomonidan 1-meva-sabzavot shakli amaliyotga joriy etildi hamda har chorakda belgilangan tartibda statistik kuzatuvlar tashkil etilmokda.

Kezi kelganda yana bir masalaga e'tibor qaratish joiz. Bugungi kunda jahonda oziq-ovqat xavfsizligi masalasi ko'pchilikni o'ylantirmoqda. Bir tomonda millionlab insonlar ochlikdan aziyat chekayotgan bo'lsa, boshqa tomonda sun'iy, sifatsiz oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish hisobiga turli kasalliklar kelib chiqmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi" nomli ma'ruzasida ham ushbu masala bo'yicha quyidagilarni ta'kidlaganlar: "Bosh qomusimiz Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa asosiy xalqaro hujjatlar talablariga to'la mos holda, inson va fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini kafolatlab berdi. Insonning ma'naviy kamol topishi va har tomonlama uyg'un rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi".

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida oldinda turgan vazifalar haqida nutq so'zlagan Shavkat Mirziyoyev aholi salomatligiga e'tibor kuchaytirilishi haqida gapirdi: "Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirish va aholining ularga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondirish, jumladan, maqbul narxlar bo'yicha keng turdagi oziq-ovqat maqsulotlari bilan xalqimizni to'liq ta'minlash oldimizda turgan muhim vazifalar qatoriga kiradi", deb ta'kidladi.

O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasida kelgusida quyidagi ustuvor vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning 2030-yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan ustuvor chora-tadbirlar Dasturi

2. Qishloq xo'jaligi tuzilmalarini kompleks subyektlar sifatida yiriklashtirish va ixtisoslashtirish;

3. Klasterli tuzilmaga asoslangan yaxlitlashgan ishlab chiqarishni shakllantirish;

4. Infratuzilma va axborot-marketing tizimlarini rivojlantirish.

5. Mahsulot sifatini oshirish imkonini beradigan eng zamonaviy texnologiyalarni joriy etish;

6. Oziq-ovqat bozorini muvofiqlashtirishning yangicha samarali usullarini qo'llash;

7. "Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to'g'risida"gi Qonunga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish hamda "Ijtimoiy ovqatlanish to'g'risida"gi yangi qonun hujjatini qabul qilish;

8. "Oziq-ovqat va qayta ishlash sanoatini rivojlantirish to'g'risida"gi yagona qonun hujjatini ishlab chiqish;

9. Hududlarda oziq-ovqat sanoati korxonalarini samarali joylashtirish tartibotini joriy etish va mahsulotga ixtiyoriy ravishda ekologiya sertifikatini olishni tashkil etish;

10. Yuqori talabli mahsulot ishlab chiqarishda davlat tomonidan subsidiya ajratish tartibini joriy etish;

11. Mahsulot ishlab chiqarishda va yetkazishda aholi salomatligiga oid me'yorlarga amal qilish bo'yicha rasmiy tekshiruvlar tartibini qayta ko'rib chiqish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilish lozimki, oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish va ularni qayta ishlash rivojlanib, kengayib borishi bu borada huquqiy asoslarni yanada takomillashtirish vazifasini qo'yadi. Ushbu sohani tartibga soluvchi huquqiy hujjatlardan biri «Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to'g'risida»gi Qonun 1997-yilda qabul qilingan bo'lib, unga bugungi kun qonunchilik talablariga muvofiq tarzda, tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish talab etiladi.

Bu o'rinda, xususan, sohada davlat siyosatini olib boruvchi vakolatli organlar va fuqarolarning majburiyatlarini alohida me'yorlashtirish, respublikamiz hududiga chetdan kirib kelayotgan mahsulotlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, qalbaqilashtirilgan oziq-ovqat

mahsulotlarini ishlab chiqarish va realizatsiya qilish ustidan nazoratni kuchaytirish masalalarini e'tiborga olish lozim, deb o'ylaymiz.

Nazorat savollari:

1. Sifat talablarining xususiyatlari nimadan iborat?
2. Oziq-ovqat xavfsizligi doktrinasi nima?
3. Oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi davlat faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar qaysilar?
4. Xomashyo va oziq-ovqat mahsulotlari sifatini ta'minlash?
5. Oziq-ovqat xavfsizligi sohasida huquqiy tartibga solish?

Test savollari

1. Prezidentimizning «nechanchi yillar uchun ishlab chiqarishning tuzilmaviy qayta tuzilishi, zamonaviylashishi va diversifikatsiyasini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida»gi Farmoniga ko'ra, 5 yil ichida 876 investitsion loyixani amalga oshirish rejalashtirilgan?

- A) 2015-2019
- B) 2014-2019
- C) 2017-2022
- D) 2016-2020

2. 2015-yilda mamlakatimiz Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO)ga a'zo davlatlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash sohasida Mingyillik rivojlanish maqsadlariga erishgani uchun beriladigan mukofotiga sazovor bo'lgan nechta davlatdan biri sifatida e'tirof etildi (O'zbekiston)?

- A) 14
- B) 15
- C) 20
- D) 25

3. Ekin maydonlarining optimallashtirilishi va zamonaviy agrotexnologiyalarning joriy etilishi natijasida 2020-yilda boshqoli don yetishtirishni necha foizga oshirildi?

- A) 16,4
- B) 17.5
- C) 15.9
- D) 19.6

3-amaliy mashg'ulot

INTEGRATSIYALASHGAN SIFAT TIZIMLARINING NATIJADORLIGI VA SAMARADORLIGI

Mashg'ulot rejası:

3.1. Integratsiyalashgan sifat tizimlarining natijadorligi va samaradorligini o'rganish.

3.2. Oziq-ovqat korxonasi uchun integratsiyalashgan sifat menejmenti tizimini yaratish.

Mashg'ulotning maqsadi: Integratsiyalashgan sifat tizimlarining natijadorligi va samaradorligini o'rganish

Nazariy qism. Standartlash bo'yicha xalqaro tashkilot bo'yicha mahsulotlariga qo'yiladigan talablarni belgilaydi va ISO standartlarida 9000 seriyasini vujudga keltirdi. Sifat tizimini sertifikatlashga tayyorlash

- :
1. Aniq belgilangan protseduraning mavjudligi;
 2. Voz kechish va qaytish sonining kamligi;
 3. Tekshiruv laboratoriyasining mavjudligi;
 4. Yuqori darajadagi unumdorlik;
 5. Korxonada sifat bo'yicha menejerlarning mavjudligi;
 6. Jarayonlarni nazorat qilishning statistic uslublarini qo'llash;
 7. Hujjat bilan rasmiylashtirilgan protseduralarning mavjud bo'lishi;
 8. Korxonada tashkiliy jihatdan shakllantirilgan sifat tizimining mavjud bo'lishi;

9. Korxonada sifat bo'yicha bo'limning mavjud bo'lishi;
 10. Mahsulot ishlab chiqarishni nazorat qilish;
 11. Nuqsonlarni aniqlash bo'yicha ishlarni olib borilishi.
- Iste'molchilar uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatining yuqori darajadagi barqarorligi va muqarrarligining kafolati bo'lib, sertifikatga ega bo'lgan sifat tizimi hisoblanadi.

Sifat tizimida sertifikatning mavjud bo'lishi bozorda raqobatni saqlashning zaruriy sharti bo'lib hisoblanadi. U o'zida:

1. Ishlab chiqarish boshqarish bilan bog'liq muammolarning mavjud emasligi;

2. Korxona ishlab chiqarayotgan mahsulotlarga buyurtmachilar tomonidan bildirilayotgan shikoyatlar sonining ko'p emasligi;
3. Xaridorlar mol yetkazib beruvchining mavjud sifatni boshqarish imkonini oshirish hosil qilishi;

4. Xaridorlar mavjud sifatni boshqarish tizimi to'g'risidagi hujjatlarni talab qilish;

5. Xaridor mol yetkazib beruvchida sifatni boshqarish tizimining mavjudligini shaxsan o'zi tekshirishi va baholay olishi.

Oziq-ovqat korxonasi uchun integratsiyalashgan sifat menejmenti tizimini yaratish

Sifat tizimi (Sifat) to'plamidir biznes jarayonlari mijozlarning talablarini izchil qondirish va ularning qoniqishini oshirishga qaratilgan. U tashkilotning maqsadi va strategik yo'nalishiga muvofiqlashtirilgan (ISO 9001: 2015). U tashkiliy maqsadlar va intilishlar, siyosat, jarayonlar, uni amalga oshirish va saqlash uchun zarur bo'lgan hujjatlashtirilgan ma'lumotlar va manbalar sifatida ifodalanadi. Erta sifat menejmenti tizimlar oddiy statistika va tasodifiy tanlab olish yordamida sanoat mahsuloti ishlab chiqarish liniyasining bashorat qilinadigan natijalarini ta'kidladilar. XX asrga kelib, ishchi kuchi manbalari odatda ko'pgina sanoatlashgan jamiyatlarda eng qimmat mablag 'hisoblanar edi, shuning uchun asosiy e'tibor jamoaviy hamkorlik va dinamikaga, ayniqsa muammolarni erta signalizatsiya qilishga qaratdi. doimiy takomillashtirish tsikl XI asrda QMS birlashishga moyil bo'ldi barqarorlik va oshkoralik tashabbuslar, chunki ham investor, ham mijozlar ehtiyojini qondirish va qabul qilinadigan sifat ushbu omillarga tobora ko'proq bog'liqdir. QMS rejimlaridan ISO 9000 standartlar oilasi, ehtimol dunyo bo'ylab eng keng tatbiq etilgan ISO 19011 audit rejim ikkalasiga ham tegishli bo'lib, sifat va barqarorlik va ularning integratsiyasi bilan shug'ullanadi.

Dunyo amaliyotida ISO 9000, 14000 seriyadagi standartlardan foydala-nish, sifatini boshqarish sohasida regional va tarmoq standartlaridan foydalanishning keng yo'lga qo'yildi. Korxonalarda integrallashgan menejment sistemasini (IMS) ning ham shakllanishini vujudga keltirmoqda.

Nazorat savollari:

1. Integratsiyalashgan sifat tizimlarini ishlab chiqish zarurati deganda nimani tushunasiz?

2. Integratsiyalashgan sifat tizimlarining natijadorligi va samaradorligini tushuntiring.

3. Oziq-ovqat korxonasi uchun integratsiyalashgan sifat menejmenti tizimini yaratish nima?

Test savollari

1. Nechanchi asrga kelib, ishchi kuchi manbalari odatda ko'pgina sanoatlashgan jamiyatlarda eng qimmat mablag 'hisoblanar edi, shuning uchun asosiy e'tibor jamoaviy hamkorlik va dinamikaga, ayniqsa muammolarni erta signalizatsiya qilishga qaratdi?

- A) XX
- B) XXI
- C) XIX
- D) XIV

2. Dunyo amaliyotida qaysi seriyadagi standartlardan foydalanish, sifatini boshqarish sohasida regional va tarmoq standartlaridan foydalanish keng yo'lga qo'yildi?

- A) ISO 9000, 14000
- B) ISO 8000, 14000
- C) ISO 9000, 15000
- D) ISO 10000, 14000

3. Bozorda raqobatni saqlashning zaruriy sharti nima?

- A) Sifat tizimida sertifikatning mavjud bo'lishi
- B) Ishlab chiqarish boshqarish bilan bog'liq muammolarning mavjudligi
- C) Xaridorlar mavjud sifatni boshqarish tizimi to'g'risidagi hujjatlarni talab qilish;
- D) Hamma javob to'g'ri

4. Sifat tizimi nima?

A) Biznes jarayonlari mijozlarning talablarini izchil qondirish va ularning qoniqishini oshirishga qaratilgan to'plamdir

B) U tashkiliy maqsadlar va intilishlar, siyosat, jarayonlar, uni amalga oshirish va saqlash uchun zarur bo'lgan hujjatlashtirilgan ma'lumotlar va manbalar sifatida ifodalanadi

C) U tashkilotning maqsadi va strategik yo'nalishiga muvofiqlashtirilgan (ISO 9001: 2015).

D) To'g'ri javob yo'q

5. ISO 9000, 14000 seriyadagi standartlardan foydalanish, korxonalarda nimaning ham shakllanishini vujudga keltirmoqda?

- A) integrallashgan menejment sistemasini (IMS)
- B) sifat tizmi
- C) samaradorlikni
- D) sifat menejmenti tizimlarini

6. Sifat tizimini sertifikatlashga tayyorlash nimalarni o'z ichiga oladi?

A) 1. Aniq belgilangan protseduraning mavjudligi; 2. Voz kechish va qaytish sonining kamligi; 3. Tekshiruv laboratoriyasining mavjudligi;

B) 4. Yuqori darajadagi unumdorlik; 5. Korxonada sifat bo'yicha menejerlarning mavjudligi; 6. Jarayonlarni nazorat qilishning statistic uslublarini qo'llash;

C) 7. Hujjat bilan rasmiylashtirilgan protseduralarning mavjud bo'lishi; 8. Korxonada tashkiliy jihatdan shakllantirilgan sifat tizimining mavjud bo'lishi; 9. Korxonada sifat bo'yicha bo'limning mavjud bo'lishi;

D) Hamma javob to'g'ri

7. Dunyo bo'ylab eng keng tatbiq etilgan audit rejim qaysi?

A) ISO 19011

B) ISO 19012

C) ISO 19000

D) ISO 19015

4-amaliy mashg'ulot

OZIQ-OVQAT SANOATIDA ISO 9000 SERIYASINING XALQARO STANDARTLARI

Mashg'ulot rejası:

4.1. Tizimni yaratish bosqichlari. Davlatlararo GOST va xalqaro ISO 9001-2015 sifat menejmenti tizimining milliy standartlarini tahlili.

Mashg'ulotning maqsadi: Oziq-ovqat sanoatida ISO 9000 seriyasining xalqaro standartlarini o'rganish

Nazariy qism. Bugungi kunda «sertifikat» degan so'zni tez-tez uchratib turamiz. Kishilardan bu qanday tushuncha deb so'rasangiz turlicha talqindagi fikrlarni olishingiz mumkin. Kimdir biror-bir malaka olganlikni tasdiqlovchi hujjat desa, yana kimdir, mahsulotni sifati to'g'risidagi hujjat, ba'zi birovlar esa mahsulotni hududimizga olib kirish yoki olib ketish uchun bojxonaga taqdim qilinishi lozim bo'lgan hujjat deb ta'rif beradi.

«Sertifikat» so'zining ma'nosini keltirishdan oldin mavzudan biroz chetga chiqamiz.

Ma'lumki, Sharq, jumladan O'zbekiston xorij mamlakatlarga nafaqat go'zal tabiati va mehnatsevar xalqi bilan, balki o'zining ko'zni qamashtiradigan, rang-barang meva-sabzavot va turli mahsulotlarga serob bozorlari bilan ham mashhurdir. Bundan tashqari, bizning bozorlardagi yana bir o'zgachalik ham bor. Agar rastalar oralab yuradigan bo'lsangiz, sotuvchilar, dehqonlar meva-chevalardan uzatib, totib ko'rishni taklif etishlarini guvohi bo'lasiz (albatta, totib ko'rganlik uchun haq so'ralmaydi). Buni tagida bir ma'no yotadiki, u ham bo'lsa, mahsulotning sifatiga xaridorning o'zi baho bersin, ya'ni, taklif qilinayotgan mahsulot sifati va unga so'ralayotgan narx mutanosib ravishda belgilanayotganligiga o'zi ishonch hosil qilsin.

Qadimdan bizda bir tushuncha bor. Xarid paytida savdo mukammal va to'liq bo'lishi uchun uchta tomon ishtirok etishi lozim. Birinchi tomon - oluvchi (xaridor), ikkinchi tomon - sotuvchi (tayyorlovchi) va uchinchi - xolis tomon. Uchinchi tomon sotilayotgan buyum yoki mahsulotga qo'yilgan narx ushbu mahsulot ega bo'lgan sifat ko'rsatkichlariga mutanosib ekanligi to'g'risida kafolat bergan. Bunda uchinchi tomon albatta mahsulot to'g'risida o'zining xolisona fikrini haqqoniy bildira olishi, juda ko'p vaqtdan buyon shu faoliyat bilan shug'ullanayotganligi sababli sotilayotgan mahsulotning shu

vaqtda va shu bozordagi narxi bir-biriga mos tushushini belgilay oladigan mutaxassis bo'lishi talab etiladi. Savdoning bu turi asosan katta miqdordagi yoki qimmatbaho xarid paytida qo'llanilgan bo'lib, bu holatni hozir ham qoramol, qo'y yoki ot savdolarida uchratishimiz mumkin. O'rtada turuvchi xolis tomon (ularni dallollar deb yuritilgan) savdoni bir muqim bo'lishiga yordam berib, savdo obyektiga xos bo'lgan sifat ko'rsatkichlariga tavsif beradi va xolisona baho beradi. Bu shaxsni hozirda ko'p qo'llanilayotgan **broker** bilan tenglashtirish maqsadga muvofiq emas, chunki broker sotilayotgan yoki olinayotgan mahsulotning sifat ko'rsatkichlari to'g'risida yetarli baho bera oladigan shaxs sifatida emas, balki sotuvchi tomondan belgilangan narxda mahsulotni sotish yoki sotib olish bilan shug'ullanadi.

Biz sertifikatlashirishni tushuntirish maqsadida tanlagan misolimizda savdo tugagandan so'ng sotuvchi tomon o'z savdosidan, oluvchi tomon esa xarididan va savdo obyektining mavjud sifat ko'rsatkichlaridan ishonch hosil qilib, qoniqish hissigaga ega bo'ladi. Bu savdoning yana bir muhim xususiyati - uchinchi xolis tomon sifatida alohida ishonchga va nufuzga ega bo'lgan, rostgo'y shaxslargina ishtirok etishi mumkin. Bizdagi mana shu savdo turi bir necha yuz yillardan beri mavjud bo'lib, chet davlatlarda sertifikatlashtirish deb ataluvchi faoliyatga aynan shu asos solgan bo'lsa ham ajab emas.

Sertifikatlashtirish guvohlik berish, qayd yoki shahodat etish, ishonch bildirish ma'nolarini bildiruvchi **certifus** (lotincha) so'zidan olingan bo'lib, kerakli ishonchlilik bilan mahsulotning muayyan standartga yoki texnikaviy hujjatga muvofiqligini uchinchi, xolis va tan olingan tomon tarafidan tasdiqlaydigan faoliyatni bildiradi.

Sanoat korxonalarida ishlab chiqilayotgan turli xil mahsulotlar muayyan sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lishi kerak. Sifat ko'rsatkichlari esa ma'lum, belgilangan talablarga muvofiq (mos) kelishi lozim. Muvofiqlik o'z navbatida ma'lum standartga yoki boshqa me'yoriy hujjatlarga mos kelishini talab etadi. Muvofiqlikni sertifikatlashtirish (ya'ni tasdiqlash) mumkin.

"Sertifikatlashtirish" tushunchasi birinchi marta Xalqaro standartlashtirish tashkiloti Kengashining sertifikatlashtirish masalalari bo'yicha maxsus qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilib, uning "Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va sinov laboratoriyalarini akkreditlash sohalaridagi asosiy atamalari va ularning qoidalari" qo'llanmasiga kiritilgan.

Qayta ishlangan Xalqaro standartlashtirish tashkilotining qo'llanmasida "sertifikatlashtirish" atamasining faqatgina izohlari berilgan:

Sertifikatlashtirish umumiy atama bo'lib, mahsulot, texnologik jarayon va xizmatlarning sertifikatlashtirishda muvofiqlikni tasdiqlashda uchinchi tomonning qatnashishi va unga xolisona baho berishi tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng sertifikatlashtirish sohasida juda katta ishlar amalga oshirildi va hozirgi kunda ham bu sohaning rivojlanishi, xalqaro miqyosda tan olinishi ustida «O'zstandart» Agentligi tomonidan katta e'tibor berilmoqda. Binobarin, 1992-yil mustaqillikning ilk yillaridayoq Vazirlar Mahkamasi huzurida standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish Davlat markazi («O'zdavstandart») va keyinchalik, 2002-yilda, ushbu sohani yanada rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida mustaqil «O'zstandart» Agentligi tashkilotiga aylantirilishi Hukumatimiz tomonidan bu sohaga berilayotgan ahamiyatning mahsuli sifatida qarash mumkin. Davlatimiz tomonidan sertifikatlashtirish ishlarini tashkillashtirish, uni tartibga tushirish va bu sohaning qonuniy asosini yaratish maqsadida 1993-yil «Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida»gi qonunning qabul qilinishi, buning natijasida ishlab chiqarilayotgan va chetdan olib kirilayotgan mahsulotlarning xavfsizligi to'g'risida qarorning qabul qilinishi, uni amalga oshirish maqsadida qator chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi ham aytib o'tilgan so'zlarning yaqqol misolidir.

Nazorat savollari:

1. Sertifikat tushunchasiga ta'rif bering.
2. Sertifikatli boshqaruv degenda nimani tushunasiz.
3. Sertifikat olish tartibi qanday?
4. Muvofiqlashtirishni sharhlab bering.
5. Oziq-ovqat mahsulotlariga sertifikat qaysi davlat tashkilotidan olinadi?

Test savollari

1. Qadimdan bizda bir tushuncha bor. Xarid paytida savdo mukammal va to'liq bo'lishi uchun necha tomon ishtirok etishi lozim?

- A) 3
- B) 2
- C) 4

D) 1

2. **Sertifikatlashtirish qanday ma'nolarini bildiradi?**

A) guvohlik berish, qayd yoki shahodat etish, ishonch bildirish

B) qayd yoki shahodat etish, ishonch bildirish

C) guvohlik berish, ishonch bildirish

D) guvohlik berish, qayd yoki shahodat etish,

3. **Sertifikatlashtirish qanday so'zdan olingan?**

A) Lotincha

B) Forscha

C) Fransuzcha

D) Italyancha

4. **Sanoat korxonalarida ishlab chiqilayotgan turli xil mahsulotlar muayyan nimaga ega bo'lishi kerak?**

A) Sifat ko'rsatkichga

B) Talablarga muvofiqlikk

C) me'yoriy hujjatlarga

D) sertifikatga

5. **Davlatimiz tomonidan sertifikatlashtirish ishlarini tashkillashtirish, uni tartibga tushirish va bu sohaning qonuniy asosini yaratish maqsadida nechanchi yil «Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi?**

A) 1993

B) 1992

C) 1995

D) 1994

6. **Nechanchi yillarda mustaqillikning ilk yillaridayoq Vazirlar Mahkamasi huzurida standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish Davlat markazi («O'zdavstandart») tashkil etildi?**

A) 1992

B) 1993

C) 1994

D) 1995

7. **«O'zdavstandart» keyinchalik nechanchi yilda «O'zstandart» Agentligi tashkilotiga aylantirildi?**

A) 2002

B) 2000

C) 1999

D) 2003

5-amaliy mashg'ulot.

SIFATNI BOSHQARISH BO'YICHA EKSPERT USULLARI

Mashg'ulot rejasi:

5.1. Sifatni tekshirish (tekshirish) sohasidagi asosiy tushunchalar. Sifat auditing maqsadi, vazifalari va turlari.

5.2. Sifat menejmenti tizimlarini (SMS) sertifikatlash tartibi. Sertifikatlashning asosiy tamoyillari, tuzilishi va qoidalari.

Mashg'ulotning maqsadi: Sifatni boshqarish bo'yicha ekspert usullarini o'rganish

Nazariy qism. *Mahsulot sifatini statistik usullar yordamida nazorat qilish.* XX asrning 20-yillarida sifat nazoratining statistik usullari - "Statistical Quality Control" (SQC) ning paydo bo'lishi va kelgusi rivojlanishi, sifat menejmenti taraqqiyotida muhim davr bo'ldi. 1924-yilda Amerikaning "Bell Telephone Laboratories" kompaniyasining xodimi V.Shuxart mahsulotlar sifatini kuzatib borishning nazorat kartalarini o'ylab topadi. Taxminan shu davrda G.F.Dodj va G.G.Roming ilk marta sifatni saralab nazorat qilish jadvallarini ishlab chiqadi. Shu ishlarning barchasi birgalikda, sifat boshqaruvining statistik usullari vujudga kelishi uchun turtki berdi va bu usullar keyinchalik E.Deming sharofati bilan Yaponiyada keng tarqaldi hamda shu mamlakatdagi iqtisodiy inqilobga katta ta'sir ko'rsatdi.

Bu usul yaroqsiz mahsulotlarni iste'molchiga jo'natish oldidan aniqlash va konveyerdan olib tashlashga emas, balki texnologik jarayon vaqtida yoq unga e'tibor qaratish imkoniyatini yaratdi. Bunda asosiy e'tibor ishlab chiqarish jarayonlarining barqarorligini ta'minlashga va ularning o'zgaruvchanliklarini kamaytirishga qaratildi. Ya'ni, nuqsonlar sababini aniqlash va jarayonlarni boshqarish asosida ularni bartaraf etish asosiy vazifaga aylandi.

Sifatni boshqarish (Quality Control). 1950-yillarga kelib, sifatga erishish – nafaqat sifat bo'yicha nazoratchi yoki muhandisning, balki har bir korxona xodimining muhim vazifasi ekanligi ayon bo'ldi. Sifat konsepsiyasi endi nafaqat, ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirishga, balki butun tizimni yaxshilashga, kompaniyalar rahbariyatining sifat muammolarida bevosita qatnashuviga, kompaniyaning barcha xodimlarini sifatni ta'minlashning asosiy usullariga o'rgatishga qaratiladi. Bu davr birinchi navbatda Amerikalik mutaxassislar Deming va Juranning sifat sohasidagi faoliyati bilan

bog'liqdir. Sifat nazoratining statistika usullarini tatbiq etishdan tashqari, bu olimlar qo'shgan salmoqli hissa shundan iborat ediki, ular ideal mahsulot o'lchamlariga ta'sir qiladigan, o'sha davrgacha ma'lum bo'lmagan va o'rganilmagan turli omillarning mavjudligini ixtiro qilishgan.

Bu esa sifat to'g'risidagi yangi fan nazariyotchilari va amaliyotchilari uchun kelgusi tadqiqotlarni davom ettirish imkonini bergan. Aynan, Deming va Juran birinchi bo'lib sifatni ta'minlashning tashkiliy masalalariga e'tibor qaratdilar, sifat muammolari yechimida rahbariyatning roliga alohida urg'u berdilar. Shunday qilib, XX asrning 50-60-yillarida sifat ishlab chiqarish sohasidan sekin-asta umumiy menejment sohasiga o'ta boshlagan; *bunda e'tibor yaroqsiz mahsulotlarni ishlab chiqarishdan olib tashlashdan xatolarning oldini olishga ko'chdi.*

Sifat muammolari rivojlanishidagi ushbu davrning muhim voqeasi – 1956-yilda *Sifatni yalpi nazorat qilish* – “*Total Quality Control*” (TQC) konsepsiyasining vujudga kelishi bo'ldi. Mazkur konsepsiya kelgusida sifatni boshqarishga tizimli yondoshuvni boshlab berdi. Uning muallifi – sifat bo'yicha mashhur amerikalik mutaxassislardan biri bo'lgan A.Feygenbaum hisoblanadi. Uning fikricha, mahsulot hayotiy siklining barcha bosqichlarini o'z ichiga olgan to'liq ishlab chiqarish jarayoni sifatni belgilaydi. A.Feygenbaum taklif etgan sifatni boshqarish tizimi korxonaning ichki boshqaruviga sezilarli o'zgartirishlar kiritdi. Xususan, tashkiliy tuzilmalar o'zgardi, ilmiy, loyihalash-konstruktorlik, ishlab chiqarish, ta'minot va sotuv bo'linmalari tasarrufida sifatni boshqaruvchi markaziy bo'limlar va tegishli yacheykalar tashkil qilindi.

TQC konsepsiyasi Yaponiyada ham faol rivojlanib, bunda asosiy ahamiyat statistika usullari qo'llanishiga va xususan, xodimlarni ish jarayoniga “sifat to'garaklari” orqali jalb etishga qaratildi. K.Isikava bu konsepsiyaning faol tarafdori va targ'ibotchilaridan biri edi. Isikava sifat to'garaklari falsafasi ustida izchil, davomli ish olib borib, uni tashkilotning barcha xizmatchilari va rahbariyatiga tushuntirib, tanishtirdi. Shuningdek, olim birinchi bo'lib E.Demingning sifat falsafasini va A.Feygenbaumning TQC modelini o'zi kashf etgan butun tashkilot doirasida sifatni nazorat qilish tizimiga (Company-Wide Quality Control, CWQC) tatbiq etdi. CWQCning umumiy g'oyasi sifatni boshqarish falsafasining yangi shaklini o'zlashtirgan edi. Bu g'oya keyinchalik TQM konsepsiyasiga aylanadi. Kaora Isikavadan tashqari, jahonda sifatni boshqarish nazariyasi va amaliyotiga salmoqli hissa

qo'shgan yapon maktabi namoyandalari Geniti Taguti va Sigeo Singni ham kiritish mumkin.

Yaponiyada sifatni boshqarish usullarining keng joriy etilishi natijasida, XX asrning 60-80-yillari jahon bozorlarida yapon mahsulotlari hukmronligi davriga aylanishiga olib keldi. Yevropa mamlakatlarini Yapon mahsulotlari egallashi, sifatni ta'minlash tizimlaridan foydalanish bilan bog'liq faoliyatni kuchaytirib yubordi. Bu tizimlar nafaqat maxsus sifat xizmatlari, balki korxonaning butun rahbariyati sifat uchun birgalikda ishlashi, mas'uliyat va vakolatni o'z zimmasiga olishi zarurligini taqozo etdi. Buyuk Britaniyada 1979-yilda paydo bo'lgan BS 5750 shunday standart bo'lib hisoblanadi. Aynan shu standart keyinchalik ISO 9000 seriyali standartlarni yaratish uchun asos bo'ldi.

SMT va ISO 9000 seriya standartlari rivojlanishiga katta hissa qo'shgan "g'arb maktabi"ning vakili, amerikalik mutaxassis F.B.Krosbi o'zidan oldingi hamkasblaridan farqli o'laroq, sifatni kompleks usulda takomillashtirish muammosini yechish taklifi bilan chiqdi. U sifat tizimini joriy etishning 14 ta qoidasini kashf etgan. ISO 9000 standartlarida bunday yondoshuv (unifikatsiyalash va standartlashtirish) 8 yil o'tgandan keyingina – 1987-yilda qo'llanilgan.

Shunday qilib, bu davrda sifatni yaxshilash va ishlab chiqarish unumdorligining o'sishi o'rtasidagi avvalgi ziddiyat hal etildi. Chunki boshqaruvning yangicha g'oyalari qo'llanishi bir vaqtning o'zida sifatni oshirish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish uchun imkon berdi. Bunday taraqqiyot ko'p jihatdan J.Juran va A.Feygenbaum tadqiqotlariga bog'liqdir, chunki ular sifat xarajatlarini ("cost of quality") asoslash va umuman sifatning iqtisodiy samaradorligini aniqlashga salmoqli hissa qo'shishgan.

Nazarat savollari:

1. Sifatni boshqarish taraqqiyoti deganda nimani tushunasiz?
2. Oziq-ovqat mahsulotlari sifatini statistik usullar yordamida nazorat qilish nima?
3. Sifatni boshqarish degan tushuncha qachon paydo bo'lgan?
4. Sifat bo'yicha jarayonlarni tashkil etishning sex shakli deganda nimani tushunasiz?

Test savollar

1. XX asrning 20-yillarida sifat nazoratining statistik usullari yani nima paydo bo'lgan?

- A) "Statistical Quality Control" (SQC)
- B) "Bell Telephone Laboratories"

C) "international standart organization" (ISO)

D) Hamma javob to'g'ri

2. Amerikaning "Bell Telephone Laboratories" kompaniyasining qaysi xodimi mahsulotlar sifatini kuzatib borishning nazorat kartalarini o'ylab topadi?

A) V.Shuxart

B) G.F.Dodj

C) G.G.Roming

D) E.Deming

3. Nechanchi yillarga kelib, sifatga erishish – nafaqat sifat bo'yicha nazoratchi yoki muhandisning, balki har bir korxona xodimining muhim vazifasi ekanligi ayon bo'ldi.

A) 1950

B) 1965

C) 1945

D) 1955

4. Sifatni yalpi nazorat qilish – "Total Quality Control" (TQC) konsepsiyasining muallifi kim?

A) A.Feygenbaum

B) V.Shuxart

C) G.F.Dodj

D) G.G.Roming

5. "G'arb maktabi"ning vakili, amerikalik mutaxassis F.B.Krosbi sifat tizimini joriy etishning nechta qoidasini kashf etgan?

A) 14 ta

B) 15 ta

C) 12 ta

D) 13 ta

6. Qaysi standart keyinchalik ISO 9000 seriyali standartlarni yaratish uchun asos bo'ldi?

A) BS 5750

B) BS 5760

C) SMT 9000

D) BS 5850

7. BS 5750 standarti qayerda va qachon paydo bo'lgan?

A) Buyuk Britaniyada 1979-yilda

B) Fransiyada 1979-yilda

C) Buyuk Britaniyada 1990-yilda

D) Rossiyada 1979-yilda

6-amaliy mashg'ulot.

MUVOFIQLIKNI BAHOLASH SOHASIDAGI ASOSIY TUSHUNCHALAR

Mashg'ulot rejasi:

6.1. Muvofiqlikni baholash sohasidagi asosiy tushunchalar.

6.2. Mahsulotlar va oziq-ovqat xom ashyosining muvofiqligini tasdiqlash sxemalari.

Mashg'ulotning maqsadi: Muvofiqlikni baholash sohasidagi asosiy tushunchalarini o'rganish

Nazariy qism. Ushbu mavzuda keltiriladigan atama va ta'riflar ISO/MEK 2, O'z DSt ISO 9000:2002, O'z DSt 5.5 standartlariga to'la mos bo'lib, quyidagi atama va ta'riflar mutanosiblik bilan qo'llaniladi:

Sertifikatlashtirish jarayoni - shunday uslubki, unda vositachi hisoblanmish – uchinchi tomon yozma ravishda guvohlik bildirib, mahsulot, jarayon yoki xizmatni qo'yilgan talablar darajasiga mosligini aniqlab beradi.

Sanoat korxonalarida qayta ishlab chiqilayotgan har xil mahsulotlar muayyan ko'rsatkichlarga javob berishi kerak. Bu ko'rsatkichlar esa ma'lum belgilangan talablarga mos kelishi zarur. Muvofiqlik o'z navbatida mahsulot yoki xizmatlarning ma'lum standartga yoki boshqa me'yoriy hujjatlardagi shu mahsulot yoki xizmatlarga belgilangan ko'rsatkichlarga mos kelishini talab etadi. Muvofiqlikni sertifikatlashtirib amaliyotga joriy etish mumkin. Xo'sh sertifikatlashtirish tushunchasi qanday tushuncha hisoblanadi? Bunga quyida javob beramiz.

Sertifikatlashtirish - talab etilgan ishonchlilik bilan mahsulotning muayyan standartga yoki texnikaviy hujjatga muvofiqligini tasdiqlaydigan faoliyat tushuniladi.

"Sertifikatlashtirish" tushunchasi birinchi marta Xalqaro standartlashtirish tashkiloti Kengashining sertifikatlashtirish masalalari bo'yicha maxsus qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilib, uning "Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va sinov laboratoriyalarining akkreditlash sohalaridagi asosiy atamalari va ularning qoidalari" qo'llanmasiga kiritilgan.

Muvofiqlik - mahsulot, jarayon, xizmatga belgilangan barcha talablarga rioya qilishni o'z tarkibiga oladi. Bunda muvofiqlikni uchta

ko'rinishi - muvofiqlik bayonoti, muvofiqlikni attestatlash, muvofiqlikni sertifikatlashtirish degan tushunchalar mavjud.

Muvofiqlik bayonoti deb yetkazib beruvchining mahsulot, jarayon va xizmatlarning aniq bir standartga yoki boshqa me'yoriy hujjatga to'la-to'kis muvofiqligi haqida butun mas'uliyatni o'z ustiga olganligini bayon etishiga aytiladi.

Muvofiqlikni attestatlash uchunchi tomon tarafidan "sinov laboratoriyasining bayonoti" tushunilib, ma'lum namuna mahsulotga bo'lgan talablarni belgilovchi ma'lum standartlar yoki boshqa hujjatlar bilan muvofiq ekanligini bayon etishiga aytiladi.

Sertifikatlashtirish jarayoni deganda mahsulot (buyum, mol) yoki xizmat ma'lum standart yoki texnikaviy shart talablariga mos kelishini tasdiqlash maqsadida o'tkaziladigan faoliyat tushunilib, ushbu faoliyat natijasida mahsulot (buyum, molning) joriy etilgan talablarga iste'molchini ishontiradigan tegishli hujjat - sertifikat beriladi.

Yana bir zarur tushuncha (atama) lardan biri "sertifikatlashtirish tizimi" bo'lib, u quyidagicha ta'riflanadi: **Sertifikatlashtirish tizimi** - muvofiqlikning sertifikatlashtirish faoliyatini o'tkazish uchun ish tartibi qoidalariga va boshqarishiga ega bo'lgan tizimdir.

Sertifikatlashtirish faoliyatida qo'llaniladigan uchta tushuncha to'g'risida to'xtalib o'tamiz: sertifikatlashtirish tizimidan foydalanish, sertifikatlashtirish tizimida qatnashuvchi va sertifikatlashtirish tizimi a'zosi.

Sertifikatlashtirish tizimidan foydalanish – guvohnoma oluvchi talabgorga, sertifikatlashtirish tizimining qoidalariga muvofiq berilgan sertifikatlashtirishdan foydalanish imkoniyati tushuniladi.

Sertifikatlashtirish tizimida qatnashuvchi – deb, ushbu tizimning qoidalari asosida faoliyat ko'rsatadigan, lekin tizimni boshqarish imkoniyatiga ega bo'lmagan sertifikatlashtirish qatnashuvchisi tushuniladi.

Sertifikatlashtirish tizimi a'zosi deganda, ushbu tizimning qoidalariga asosan faoliyat ko'rsatadigan va tizimni boshqarishda ma'lum darajada qatnashadigan sertifikatlashtirish ishtirokchisi tushuniladi.

Sertifikatlashtirish ikki xil tartibda bo'ladi: majburiy va ixtiyoriy. Ishlab chiqarilgan yoki iste'mol qilinadigan mahsulot uchun uning tashqi muhitga, inson salomatligiga ta'siri asosiy mezon hisoblanadi. Tashqi muhitga, inson salomatligi va uning xavfsizligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatuvchi mahsulotlar, majburiy sertifikatlashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi, bunday mahsulotlar ro'yxati davlat tomonidan

tasdiqlanib, bu ro'yxatga kiritilmagan mahsulotlar esa sertifikatlashtirilishi ixtiyoriydir.

Majburiy sertifikatlashtirish deganda, sertifikatlashtirish huquqiga ega bo'lgan idora tomonidan tasdiqlangan ro'yxatga kiritilgan mahsulot jarayon, xizmatning standartlardagi talablarga muvofiqligini tasdiqlash tushuniladi.

Ixtiyoriy sertifikatlashtirish deganda ishlab chiqaruvchi (bajaruvchi), sotuvchi (ta'minlovchi) yoki iste'molchi tashabbusi bilan ixtiyoriy ravishda o'tkaziladigan mahsulot sertifikatlashtirilishi tushuniladi.

Sertifikatlashtirish tarixini ko'rib chiqadigan bo'lsak, bu faoliyat bilan ishlab chiqaruvchi assotsatsiyalar, yirik iste'molchilar, standartlashtirish milliy tashkilotlari shug'ullanib turli tizimlarni yaratganlar. Masalan, Fransiya va Angliyada 1960-yillar boshida iste'molchilar tomonidan harbiy maqsadlar uchun ishlatiladigan elektronika mahsulotlarini sertifikatlashtirish tizimi yaratildi.

Shuning uchun sertifikatlashtirishni tekshiruv deb hisoblab, bosim ostidagi idishlarni, portlash havfidan himoyalangan qurilmalarning, kemalarning, suzish vositalarining, tayyorlarning, aviatsiya qurilmalarining, atom reaktorlarining va tog' texnikasining ishlatilishdagi xavfsizligini ta'minlash maqsadida texnikaviy nazorat o'rnatuvchi idoralar shartli tekshiruvni amalga oshiradi.

Akkreditatsiya – bu nufuzli idora tomonidan, boshqa bir tashkilot yoki shaxsni rasmiy ravishda aniq ishlarni bajarishda to'la huquqli vakolat berilganligini e'tirof etishidir.

Nazorat savollari:

1. Akkreditatsiyadan o'tish tartibi qanday?
2. Ixtiyoriy sertifikatlashtirish nima?
3. Majburiy sertifikatlashtirish nima?
4. Muvofiqlik belgisi deganda nimani tushunasiz?
5. Sertifikatlashtirishning zaruriyati nimada?

Test savollari

1. Sertifikatlashtirish jarayoni - shunday uslubki,

A) unda vositachi hisoblanmish – uchinchi tomon yozma ravishda guvohlik bildirib, mahsulot, jarayon yoki xizmatni qo'yilgan talablar darajasiga mosligini aniqlab beradi.

B) unda vositachi hisoblanmish – ikkinchi tomon yozma ravishda guvohlik bildirib, mahsulot, jarayon yoki xizmatni qo'yilgan talablar darajasiga mosligini aniqlab beradi.

C) unda vositachi hisoblanmish – uchinchi tomon og'zaki ravishda guvohlik bildirib, mahsulot, jarayon yoki xizmatni qo'yilgan talablar darajasiga mosligini aniqlab beradi.

D) unda vositachi hisoblanmish – uchinchi tomon yozma ravishda guvohlik bildirmay, mahsulot, jarayon yoki xizmatni qo'yilgan talablar darajasiga mosligini aniqlab beradi.

2. Sertifikatlashtirish tushunchasi qanday tushuncha hisoblanadi?

A) talab etilgan ishonchlilik bilan mahsulotning muayyan standartga yoki texnikaviy hujjatga muvofiqligini tasdiqlaydigan faoliyat tushuniladi.

B) unda vositachi hisoblanmish – uchinchi tomon yozma ravishda guvohlik bildirmay, mahsulot, jarayon yoki xizmatni qo'yilgan talablar darajasiga mosligini aniqlab beradi

C) mahsulot, jarayon, xizmatga belgilangan barcha talablarga rioya qilishni o'z tarkibiga oladi

D) to'g'ri javob yo'q

3. Muvofiqlik – nima?

A) mahsulot, jarayon, xizmatga belgilangan barcha talablarga rioya qilishni o'z tarkibiga

B) unda vositachi hisoblanmish – uchinchi tomon yozma ravishda guvohlik bildirmay, mahsulot, jarayon yoki xizmatni qo'yilgan talablar darajasiga mosligini aniqlab beradi

C) talab etilgan ishonchlilik bilan mahsulotning muayyan standartga yoki texnikaviy hujjatga muvofiqligini tasdiqlaydigan faoliyat tushuniladi.

D) unda vositachi hisoblanmish – uchinchi tomon yozma ravishda guvohlik bildirmay, mahsulot, jarayon yoki xizmatni qo'yilgan talablar darajasiga mosligini aniqlab beradi.

4. Muvofiqlikni attestatlash deb nimaga aytiladi?

A) uchunchi tomon tarafidan "sinov laboratoriyasining bayonoti" tushunilib, ma'lum namuna mahsulotga bo'lgan talablarni belgilovchi ma'lum standartlar yoki boshqa hujjatlar bilan muvofiq ekanligini bayon etishiga aytiladi.

B) unda vositachi hisoblanmish – uchinchi tomon yozma ravishda guvohlik bildirmay, mahsulot, jarayon yoki xizmatni qo'yilgan talablar darajasiga mosligini aniqlab beradi

C) talab etilgan ishonchlilik bilan mahsulotning muayyan standartga yoki texnikaviy hujjatga muvofiqligini tasdiqlaydigan faoliyat tushuniladi.

D) unda vositachi hisoblanmish – uchinchi tomon yozma ravishda guvohlik bildirmay, mahsulot, jarayon yoki xizmatni qo'yilgan talablar darajasiga mosligini aniqlab beradi.

5. Sertifikatlashtirish necha xil tartibda bo'ladi?

- A) 2
- B) 3
- C) 4
- D) 5

6. Majburiy sertifikatlashtirish deb nimaga aytiladi?

A) sertifikatlashtirish huquqiga ega bo'lgan idora tomonidan tasdiqlangan ro'yxatga kiritilgan mahsulot jarayon, xizmatning standartlardagi talablarga muvofiqligini tasdiqlash tushuniladi.

B) ishlab chiqaruvchi (bajaruvchi), sotuvchi (ta'minlovchi) yoki iste'molchi tashabbusi bilan ixtiyoriy ravishda o'tkaziladigan mahsulot sertifikatlashtirilishi tushuniladi.

C) talab etilgan ishonchlilik bilan mahsulotning muayyan standartga yoki texnikaviy hujjatga muvofiqligini tasdiqlaydigan faoliyat tushuniladi.

D) unda vositachi hisoblanmish – uchinchi tomon yozma ravishda guvohlik bildirmay, mahsulot, jarayon yoki xizmatni qo'yilgan talablar darajasiga mosligini aniqlab beradi.

7. Ixtiyoriy sertifikatlashtirish deb nimaga aytiladi?

A) ishlab chiqaruvchi (bajaruvchi), sotuvchi (ta'minlovchi) yoki iste'molchi tashabbusi bilan ixtiyoriy ravishda o'tkaziladigan mahsulot sertifikatlashtirilishi tushuniladi

B) sertifikatlashtirish huquqiga ega bo'lgan idora tomonidan tasdiqlangan ro'yxatga kiritilgan mahsulot jarayon, xizmatning standartlardagi talablarga muvofiqligini tasdiqlash tushuniladi

C) ishlab chiqaruvchi (bajaruvchi), sotuvchi (ta'minlovchi) yoki iste'molchi tashabbusi bilan ixtiyoriy ravishda o'tkaziladigan mahsulot sertifikatlashtirilishi tushuniladi.

D) talab etilgan ishonchlilik bilan mahsulotning muayyan standartga yoki texnikaviy hujjatga muvofiqligini tasdiqlaydigan faoliyat tushuniladi.

7-amaliy mashg'ulot.
HACCP USULI BO'YICHA OZIQ-OVQAT
MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQARISHNI TADQIQ QILISH
VA SIFATINI NAZORAT QILISH BOSQICHLARI.

Mashg'ulot rejasi:

7.1. Yaxshi ishlab chiqarish amaliyotlarini tahlil qilish va qo'llash. HACCP tizimi, GMP, GOST 51705.1-2001, ISO 22000-2007 "Tizimlar" asosida oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligini ta'minlash.

Mashg'ulotning maqsadi: HACCP usuli bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni tadqiq qilish va sifatini nazorat qilish bosqichlari ni o'rganish

Nazariy qism. HACCP guruhi: XTKNN tizimini (GOST R 51705.1-2001) ishlab chiqadigan, amalga oshiruvchi va amalga oshiruvchi mutaxassislar guruhi (turli sohalarida malakaga ega).

HACCP guruhi a'zolari oziq-ovqat ishlab chiqarish texnologiyalari, muhandislik aspektlari, veterinariya (hayvonot mahsulotlariga), mikrobiologiya, kimyo, toksikologiya, atrof-muhit va ekologiya, qonunchilik va boshqa majburiy talablarga ega bo'lgan sohalarida etarli bilim va tajribaga ega bo'lishi kerak. oziq-ovqat mahsulotlari, shuningdek, HACCP tamoyillarini tushunish va mantiqiy tahlilga qodir. Mavjud va ehtimol xavf omillarini, shuningdek ularni nazorat qilish usullarini tushunish kerak.

XTKNN tizimining samaradorligi xodimlarning malakasiga bog'liq. Natijada, XTKNN tizimini yaratishda eng muhim element xodimlarni tayyorlash va o'qitishdir. Tashkilotda tegishli mutaxassislar yo'q bo'lganda, siz ushbu mahsulot bilan bog'liq mumkin bo'lgan xatarlarni bilib, uchinchi tomon ekspert maslahatchilarining yordamidan foydalanishingiz mumkin.

Ikki qadam - xomashyo, materiallar, mahsulot, ishlab chiqarish jarayoni haqida ma'lumot. Ushbu bosqichda HACCP guruhi ishlatilgan xomashyo, ingredientlar, qadoqlash materiallari va mahsulotlarini batafsil tavsiflaydi. Bundan tashqari, xom ashyo tarkibiga kiruvchi allergenlarni unutmashligimiz va tayyor mahsulotdagi allergenlarning kirib kelishini baholashimiz kerak. Allergiya reaksiyalariga olib kelishi yoki ayrim kasalliklarda kontrendikatsiyalanadigan eng keng tarqalgan komponentlar Bojxona ittifoqining TSh TS 022/2011 «Oziq-ovqat

mahsulotlarini uning belgilari bo'yicha» Texnik reglamentida keltirilgan.

XTKNN jamoasining a'zolari ishlab chiqarish uchun mahsulot va texnologiyalarni bilishlari, mahsulotdan qanday foydalanish kerakligi va oxirgi mahsulotni noto'g'ri ishlatish va noto'g'ri foydalanishni ta'riflashlari kerak. *Misol uchun, hamma xamirni xom ashyoni iste'mol qilmasligini biladi, lekin ba'zi odamlar ushbu talabni e'tiborsiz qoldiradi va bu zaharlanishga olib kelishi mumkin. Gazlangan ichimliklar bilan "efervesan" shakarni ishlata olmaysiz, chunki shakar ichimlik gazlari bilan reaksiyaga kirishishi mumkin va bu oshqozon va boshqa xavfli oqibatlariga olib kelishi mumkin.*

Uchinchi qadam oqim sxemalarini ishlab chiqish bo'lishi kerak. Axborot skriptlarini tuzishda ishlovchilarni ish joylarida (oshpazlar, savdogarlar va boshqalar) bevosita ishlaydigan xodimlarni jalb qilish kerak. Oqim sxemalari murakkab va murakkab bo'lishi shart emas.

Keyingi, to'rtinchi qadam potensial xavflarni aniqlash va ularni tahlil qilish bo'ladi. Tahlilning maqsadi mahsulot xavfsizligi va iste'molchilar salomatligi uchun muhim bo'lgan barcha mumkin bo'lgan tavakkallarni, ularning taqqoslashini aniqlashdan iborat.

Xavf: Xavfni ro'yobga chiqarish ehtimolligi va uning oqibatlari jiddiyligi (GOST R 51705.1-2001).

Xavfli omillar biologik, kimyoviy yoki fizikaga bo'linadi, uning mavjudligi iste'molchining sog'lig'iga xavfli mahsulotlarni keltirib chiqarishi mumkin. Xavfli biologik omillar bakteriyalar, viruslar, mog'or va boshqa qo'ziqorinlar, shuningdek, hasharotlardir. Ularning kelib chiqishi suvni, texnologik asbob-uskunalarni ishlab chiqarishda, xomashyo va havo mahsulotidan tayyor mahsulotlarni olishda ishlatilishi mumkin.

Kimyoviy xatarlar allergen, antibiotiklar, toksik moddalar, pestitsidlar, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun tasdiqlanmagan oziq-ovqat qo'shimchalari, dezinfektsiyalovchi moddalar, moylash materiallari va boshqalar.

Jismoniy xavf - jismoniy shikastlanishga olib kelishi mumkin bo'lgan metall, singan shisha va nozik narsalar, toshlar, va hokazo. (Masalan, og'izda kesilgan, tozalovchi va hokazo) yoki estetik yoqtirmaslik (sochlar). Jismoniy omillar ishlab chiqarishga xom ashyo, asbob-uskunalar, binolardan, xodimlardan tushishi mumkin.

Keyingi qadamlar quyidagilardan iborat bo'ladi: har bir tanqidiy nazorat nuqtasi uchun kritik chegaralarni belgilash - har bir muhim

nazorat nuqtasi uchun monitoring tizimini yaratish - kritik chegaralardan chetga chiqilganda to'g'rilash tuzatish harakatlarini tashkil etish - XTKNN rejasini ishlab chiqish - hujjatlashtirilgan yozuvlarni majburiy ta'minlash .

KNNni aniqlash uchun siz qarorlarning daraxtidan foydalanishingiz mumkin, bu savol bir qator savollar bo'lib, ularga javob ba'zi xavf omillari bilan bog'liq.

Monitoringdan tashqari, ichki audit tartib-taomillarini (audit) tashkil etish kerak. Tasdiqlash protseduralari - tizimning XTKNN rejasiga muvofiqligini baholash uchun testlar, testlar va boshqa usullar. XTKNN amalga oshirilgan tizimining tekshiruv tekshiruv usullaridan biri hisoblanadi, chunki bu tizimning xatolarini aniqlashga va tegishli tuzatuv harakatlarini amalga oshirishga yordam beradi.

Tekshirish (tasdiqlash): ob'ektiv dalillarni taqdim etish orqali belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirish (GOST R ISO 22000-2007)

XTKNN tamoyillariga asoslangan holda protseduralarni ishlab chiqishda quyidagi hujjatlarni qo'llashingiz mumkin:

HARDWARE 021/2011 UZ «Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi to'g'risida»

GOST R 51705.1-2001 Sifat tizimlari. HACCP tamoyillariga asoslangan oziq-ovqat sifatini boshqarish. Umumiy talablar

GOST R ISO 22000-2007 (ISO 22000: 2005) Oziq-ovqat xavfsizligini boshqarish tizimlari. Oziq-ovqat ishlab chiqarish zanjiriga jalb qilingan tashkilotlar uchun talablar

GOST R ISO / TU 22004-2008 / ISO 22004: 2005 Oziq-ovqat xavfsizligi boshqaruv tizimlari. ISO 22000: 2005 ilovasi uchun qo'llanma "(GOST R ISO 22004-2017 oziq-ovqat xavfsizligini boshqarish tizimlari, ISO 22000 qo'llanilishi bo'yicha qo'llanmalar 2017 yil 1 aprelda kuchga kiradi)

GOST R ISO 22005-2009 / ISO 22005: 2007 Oziq-ovqat sanoati ta'minot zanjirida izlenibirlik. Tizimlarni loyihalash va amalga oshirishning umumiy printsiplari va asosiy talablari

GOST R 54762-2011 / ISO / TS 22002-1: 2009 Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi bo'yicha dastlabki talablar bo'yicha dasturlar. Oziq-ovqat ishlab chiqarish

GOST R 56746-2015 / ISO / TS 22002-2: 2013 Oziq-ovqat xavfsizligi uchun dasturiy shart-sharoitlar. 2-qism. Catering

GOST R 55889-2013 Ovqatlanish xizmatlari. Non mahsulotlarining xavfsizligini boshqarish tizimi. Oziq-ovqat sanoati uchun GOST R ISO 22000-2007 ilovasini tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar

GOST 33182-2014 Go'sht sanoati. Go'sht sanoati sohasida XTKNN tizimini ishlab chiqish tartibi

GOST R 56671-2015 XTKNN tamoyillariga asoslangan holda protseduralarni ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar

GOST R 53755-2009 (ISO / TS 22003: 2007) Oziq-ovqat xavfsizligini boshqarish tizimlari. Oziq-ovqat xavfsizligini boshqarish tizimlarini auditorlik va sertifikatlashtirish organlariga qo'yiladigan talablar

MR 5.1.0096-14 HACCP tamoyillari asosida oziq-ovqat ishlab chiqarish (ishlab chiqarish) jarayonlarini baholashni tashkil qilishning metodik yondashuvlari

Rivojlanayotgan asosiy hujjatlar ro'yxati GOST R 56671-2015 «XTKNN tamoyillariga asoslangan holda protseduralarni ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha tavsiyalar» A ilovasida keltirilgan (majburiy).

1) Kirish nazorati

2) O'lchov asboblari, elek va metall tutqichlarning ish faoliyatini ta'minlash

3) Jismoniy zaharlanishning oldini olish

4) Axborotni hujjatlashtirish

5) Xomashyo, materiallar va tayyor mahsulotni saqlash

6) Uskunalar va inventarni sanitarizatsiya qilish

7) Binolarni tozalash va sanitarlashtirish

8) Xodimlarning gigiyena talablari

9) Zararkunanda nazorat qilish

11) Chiqindilarni utilizatsiya qilish

12) Muvofiq bo'lmagan mahsulotlarni boshqarish

Nazorat savollari:

1. Birinchi standartlashtirish milliy tashkiloti qaysi va uning vazifalari nimalardan iborat?
2. Xalqaro standartlashtirish tashkiloti nechani yil tashkil topgan va uning asosiy maqsadi nima?
3. Sifat bo'yicha Yevropa tashkiloti qachon tashkil etilgan va qanday faoliyat olib boradi?

Test savollari

1. XTKNN tizimining samaradorligi nimaga bog'liq?

- A) xodimlarning malakasiga
- B) tamoyillarini tushunish
- C) mantiqiy tahlilga
- D) nazorat qilish usullariga

2. XTKNN tizimini yaratishda eng muhim element nimadan iborat?

- A) xodimlarni tayyorlash va o'qitish
- B) mantiqiy tahlil
- C) nazorat
- D) sifat ko'rsatgichga

3. Qanday ichimliklar bilan "efervesan" shakarni ishlata olmaysiz, chunki shakar ichimlik gazlari bilan reaksiyaga kirishishi mumkin va bu oshqozon va boshqa xavfli oqibatlariga olib kelishi mumkin?

- A) Gazlangan ichimliklar
- B) Gazlanmagan ichimliklar
- C) Energetik ichimliklar
- D) Spirtli ichimliklar

4. Xavfli omillar qanday turlarga bo'linadi?

- A) biologik, kimyoviy yoki fizikga
- B) biologik, kimyoviy
- C) biologik, fizikga
- D) kimyoviy yoki fizikga

5. Xavfli biologik omillarga nimalar kirad?

A) bakteriyalar, viruslar, mog'or va boshqa qo'ziqorinlar, shuningdek, hasharotlar

B) bakteriyalar, viruslar, mog'or, shuningdek, hasharotlar

C) bakteriyalar, viruslar, qo'ziqorinlar, shuningdek, hasharotlar

D) bakteriyalar, mog'or va boshqa qo'ziqorinlar,

6. Jismoniy xavf - jismoniy shikastlanishga olib kelishi mumkin bo'lgan nimalarni o'z ichiga oladi?

A) metall, singan shisha va nozik narsalar, toshlar, va hokazo

B) metall, singan shisha va nozik narsalar,

C) metall, singan shisha, toshlar, va hokazo

D) metall, singan shisha va nozik narsalar va hokazo

7. Tasdiqlash protseduralari nimalar?

A) tizimning XTKNN rejasiga muvofiqligini baholash uchun testlar, testlar va boshqa usullar

B) tizimning tekshirish rejasiga muvofiqligini baholash uchun testlar, testlar va boshqa usullar

C) obyektiv dalillarni taqdim etish orqali belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirish usullari

D) obyektiv dalillarni taqdim etish orqali belgilanmagan talablarga muvofiqligini tekshirish usullari

8-amaliy mashg'ulot

MEXANIK, KIMYOVIY, MIKROBIAL IFLOSLANISH.

Mashg'ulot rejasi:

- 8.1. Mexanik ifloslanish
- 8.2. Kimyoviy ifloslanish
- 8.3. Mikrobial ifloslanish

Mashg'ulotning maqsadi: Mexanik, kimyoviy, mikrobial ifloslanishni o'rganish

Nazariy qism. Sababi patogen yoki shartli-patogen mikroorganizmlar bilan ifloslangan ovqat xisoblangan kasalliklar alimantar yoki ozuqaviy deb nomlanadi.

Oziq-ovqat mahsulotlarida ba'zi mikroorganizmlar yoki ularni metabolitlarini mavjud bo'lishi odamni kasallanishiga olib keladiki, ular ikkita umumiy shakllarga bo'linadi – ozuqaviy zaxarlanishlar va ozuqaviy infeksiyalar.

Toksigen mikroorganizmlar ikki turdagi toksinlarni ishlab chiqaradi: ekzotoksinlar va endotoksinlar.

Ekzotoksinlar mikroob hujayrasidan atrof muxitga oson o'tadi. Ular ma'lum organlar va to'qimalarni ma'lum tashqi belgilar bilan jaroxatlaydi, ya'ni o'ziga xos ta'sirga ega.

Endotoksinlar mikroob hujayrasidan uning xayot faoliyati vaqtida chiqarilmaydi, ular uning halok bo'lganidan keyin ozod bo'ladi. Endotoksinlar aniq o'ziga xos ta'sirga ega emas va organizmda umumiy zaxarlanish belgilarini keltirib chiqaradi.

Ozuqaviy zaxarlanishlar shartli ravishda 2 guruhga bo'linadi: ozuqaviy toksikoinfeksiyalar va ozuqaviy intoksikatsiyalar.

Ozuqaviy toksikoinfeksiyalar faqat ovqatda ancha miqdorda tirik toksigen mikroblar va ularni toksinlari mavjud bo'lgandagina paydo bo'ladi. Ozuqaviy toksikoinfeksiyalarga salmonellar, shartli-patogen va patogen mikroorganizmlar tomonidan chaqiriladigan kasalliklar tegishli.

Ozuqaviy intoksikatsiyalar mikroob toksinlari mavjud bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari iste'mol qilinganida yuzaga keladi. Bunda tirik toksin xosil qiluvchi mikroorganizmlar allaqachon bo'lmasligi mumkin. Ozuqaviy intoksikatsiyalar bakterial (stafilokokkli intoksikatsiyalar va botulizm) va ozuqaviy mikotoksikozlarga (mikotoksinlar chaqiradigan kasalliklar) bo'linadi.

Ozuqaviy infeksiyalarga oziq-ovqat mahsuloti faqat patogen mikroorganizmlarni uzatuvchisi bo'lgan kassaliklar tegishli; ular odatda mahsulotda rivojlanmaydi.

Shartli ozuqaviy infeksiyalar 2 asosiy guruhga bo'linadi:

1. odamdan uzatiladigan infeksiyalar. Ularga xolera, qorin tifi, paratif, dizenteriya va boshqalar kabi ichak infeksiyalari tegishli.

2. odamga hayvonlardan uzatiladigan infeksiyalar. Bunday kasalliklar zoonozlar deb nomlanadi. Ularga brusellez, tuberkulez, sibir yazvasi, yashur, yirik shoxli qoramolni spongiform ensefalopatiyasi va boshqalar tegishli. Ozuqaviy zaxarlanishlar va ozuqaviy infeksiyalarda oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligini baxolashda eng avvalo mikrobiologik ko'rsatkichlar aniqlanadi.

Mikrobiologik xavfni xalqaro darajada baxolash jarayoni VOZ tomonidan rasmiy tasdiqlangan sxema bo'yicha amalga oshiriladi.

Oziq –ovqat mahsulotlarini xavfsizlik mikrobiologik ko'rsatkichlari ozuqaviy qiymati bo'yicha gigienik me'yorlari 5 guruhdagi mikroorganizmlar nazoratini qamraydi:

- sanitar-ko'rsatkichli mikroorganizmlar, ularga mezofil aerob va fakultativ anaerob mikroorganizmlar (MAFAM), ichak tayoqchalari guruhi bakteriyalari – ITGB (koliformlar), Enterobakteriaceae oilasidagi bakteriyalar, enterokokklar;

- shartli-patogen mikroorganizmlar, ularga *E.coli*, *S.aureus*, *Proteus*, *B.cereus* jinsidagi bakteriyalar va sufitredutsiyalovchi klostiridiyalari, *Vibrio parahacmolyticus* tegishli. .

- patogen mikroorganizmlar, jumladan salmonellalar va *Listeria monocytogenes*, *Yersinia* jinsidagi bakteriyalar;

- buzilish mikroorganizmlari – achitqilar va mog'or zamburug'lar, sut kislotali bakteriyalar;

- ivitqi mikroflorasi mikroorganizmlari va probiotik mikroorganizmlar (sut kislotali va propionkislotali mikroorganizmlar, achitqilar, bifidobakteriyalar, atsidofil bakteriyalar va boshqalar) – biotexnologik mikroflora darajasi me'yorlanadigan mahsulotlar va probiotik mahsulotlarda.

Oziq-ovqat mahsulotlarining mikrobiologik xavfsizlik ko'rsatkichlarini me'yorlash ko'pgina mikroorganizmlar uchun alternativ tamoyil bo'yicha amalga oshiriladi, ya'ni ichak tayoqchalari guruhi bakteriyalari, ko'pgina shartli-patogen mikroorganizmlar, shuningdek patogen mikroorganizmlarni (jumladan, salmonellalar va *Listeria monocytogenes*) mavjud bo'lishiga yo'l qo'yilmaydigan

mahsulot massasi me'yorlanadi. Boshqa xolatlarda me'yor 1 g yoki ml mahsulotlardagi koloniya xosil qiluvchi birliklar (KOE/g, ml) miqdorini aks ettiradi.

Konservalangan oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini mezoni aniq konserva turi uchun belgilangan, saqlash xaroratida rivojlanishi mumkin bo'lgan mikroorganizmlarni, odam organizmi uchun xavfli bo'lgan mikroorganizmlar va mikroob toksinlarini konservalangan mahsulotda mavjud bo'lmashligi xisoblanadi. Sanab o'tilgan mikroorganizmlarni yo'qligi konserva mahsulotini sanoat sterilligini tavsiflaydi.

Nazorat savollari:

Qanday kasalliklar alimentar yoki ozuqaviy deb nomlanadi?

Toksigen mikroorganizmlar qanday toksinlarni ishlab chiqaradi?

Ozuqaviy zaxarlanishlar shartli ravishda qanday guruhlar bo'linadi?

Oziq-ovqat mahsulotlarini xavfsizlik mikrobiologik ko'rsatkichlari qanday guruhdagi mikroorganizmlar nazoratini qamraydi?

Test savollari

1.Oziq-ovqat mahsulotlarida ba'zi mikroorganizmlar yoki ularni metabolitlarini mavjud bo'lishi odamni kasallanishiga olib keladiki, ular nechta umumiy shakllarga bo'linadi ?

A. oziqaviy zaxarlanishlar va oziqaviy infeksiyalar.

B. alimentar yoki oziqaviy

C. Ekzotoksinlar va Endotoksinlar

D. To'g'ri javob yo'q

2.Oziqaviy zaxarlanishlar shartli ravishda nechta guruhga bo'linadi va ular qaysilar?

A. oziqaviy toksikoinfeksiyalar va oziqaviy intoksikatsiyalar

B. oziqaviy zaxarlanishlar va oziqaviy infeksiyalar

C. Ekzotoksinlar va Endotoksinlar

D. alimentar yoki oziqaviy

3.Toksigen mikroorganizmlar qanday turdagi toksinlarni ishlab chiqaradi?

A. ekzotoksinlar va endotoksinlar.

B. alimentar yoki oziqaviy

C. oziqaviy zaxarlanishlar va oziqaviy infeksiyalar

D. b va c javoblar to'g'ri

4. Mikrobiologik xavfni xalqaro darajada baholash jarayoni qaysi tashkilot tomonidan rasmiy tasdiqlangan sxema bo'yicha amalga oshiriladi?

- A. VOZ
- B. ISO
- C. Malakali expertlar
- D. Tashkilotlar

5. Shartli ravishda oziqaviy infeksiyalar nechta asosiy guruhga bo'linadi?

- A. 2
- B. 3
- C. 4
- D. 5

6. Bakterial mikotoksikozlarga qaysi kasalliklar kiradi?

- A. stafilokokkli intoksikatsiyalar va botulizm
- B. stafilokokkli intoksikatsiyalar
- C. mikotoksinlar chaqiradigan kasalliklar
- D. odamdan uzatiladigan infeksiyalar

7. Oziqaviy toksikoinfeksiyalarga qaysi kasalliklar tegishli?

- A. Hamma javoblar to'g'ri
- B. salmonellar,
- C. shartli-patogen
- D. patogen mikroorganizmlar tomonidan chaqiriladigan kasalliklar

9-amaliy mashg'ulot

YASHIL TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI VA BARQARORLIGI.

Mashg'ulot rejasi:

9.1. "Yashil" texnologiyalar. Yashil mahsulot sifati va chiqindilarni boshqarishning roli.

9.2. "Yashil" texnologiyalardan foydalanishga misol sifatida. ISO 14000 seriyasining xalqaro standartlari asosida oziq-ovqat va qayta ishlash korxonalarining ekologik boshqaruvi.

Mashg'ulotning maqsadi: Yashil texnologiyalarning ahamiyati va barqarorligini o'rganish

Nazariy qism. O'zbekistonda "yashil texnologiyalar"ni hayotga tadbiq etishdagi muammo va kamchiliklar:

Ammo mazkur sohada qilinadigan ishlar hali etarlicha hisoblanadi, kelajakda mazkur sohada faoliyat yurituvchi kadrlarni yetishtirish, xorijiy ilmiy tadqiqot institutlari va sanoat korxonalari bilan ilmiy va amaliy hamkorlik o'rnatish, xorijiy grantlarni o'zlashtirish ustuvor vazifalar sanaladi.

Quyida "yashil texnologiyalar" joriy etilishida yuzaga keladigan bir qancha muammolar keltirib o'tildi:

Qishloq xo'jaligida: ishlab chiqarilgan mahsulotlarni saqlashda mini sex va saqlash xonalarining son jihatdan kamligi, tuproq degradatsiyasining ortishi, chuchuk suv zahiralarining yil sayin kamayishi, mintaqadagi asosiy suv zahirasiining asosiy qismi qo'shni davlatlarda joylashganligi;

Sanoat sohasida: Sanoat korxonalarida belgilangan talablarga to'la rioya etilmasligi, sanoat chiqindilarining suvga oqizilish ko'rsatkichi balandligi, chiqindilarni qayta ishlash sektori sust rivojlanganligi (jami chiqindilarning taxminan 10% qayta ishlanadi)

Moliyalashtirish masalasida: Bizga ma'lumki ma'lum sohani rivojlanishida dastlabki turtki davlat tomonidan berilishi normal holat ammo davlat yaxshi biznes vakili emasligi ham sir emas. Dunyoda yashil texnologiyalar rivojlanishida turli korporatsiyalar, banklar, moliya institutlari moliyalashtiruvchi rolda ishtirok etishadi. O'zbekistonda esa bu borada ma'lum muammolar mavjud. Buni biz amalga oshirilgan ishlardagi moliyalashtiruvchi manba sifatida byudjet mablag'lari sarflanayotganligidan ham guvoh bo'lamiz.

Bu soha hali yangi bo'lsada sohalar kesimida ma'lum muammolar mavjud, bu o'z navbatida soha rivoji uchun stimol bo'lish bilan birga, uni rivoji uchun muammolar ham tug'diradi.

**9.2. To'liq oziq-ovqat korxonalari sikli "yashil"
texnologiyalardan foydalanishga misol sifatida. ISO 14000
seriyasining xalqaro standartlari asosida oziq-ovqat va qayta ishlash
korxonalarining ekologik boshqaruvi**


Xalqaro standartlash amaliyotida ISO 9000 seriyasidagi standartlar korxonaning sifat boshqaruvi sistemasiga talablar o'rnatuvchi ilk bor joriy etilgan standartlardan hisoblanadi. SHu bilan bir qatorda 1990 yillardan boshlab jamoatchilikning korxonalarga ta'siri faollashdi. Bunda asosan jamoatchilikni korxonalarning atrof-muhitga ta'siri qiziqтира boshladi. Shu sababli ISO xalqaro tashkiloti tomonidan 14000 seriyadagi "Atrof-muhit sifatini boshqarish" standarti qabul qilindi. Bu standart ham 9000 seriyadagi ISO standartlari singari keng tanilgan standartlardan hisoblanadi.

14000 seriyadagi ISO ning tayanch standartlari quyidagilar hisoblanadi:

1. ISO 14001:2004 "Ekologik menejment sistemasi. Foydalanish bo'yicha talablar".
2. ISO 14004:2004 "Ekologik menejment sistemasi. Qo'llaniladigan usullar, sistemalar va tamoyillar bo'yicha rahbarlik ko'rsatmalar".

Bugungi kunda MS ISO 14000 seriyadagi standartlar talabi bo'yicha korxonalarda ekologik menejment sistemasi shakllanmoqda. Bu standartlar ishlab chiqish jarayonida korxonalarning tabiiy resuslardan oqilona foydalanish va ularning atrof-muhitga xavfli ta'sir ko'rsatmaslik masalalarini echishga katta yordam beradi.

Quyidagi 2-rasmda MS ISO 14000 seriyasiga mos ravishda ekologik menejment sistemasini sertifikatlashtirishning dunyo tendensiyasi keltirilgan.



1-rasm. MS ISO 14000 seriyasiga mos ravishda ekologik menejment sistemasini sertifikatlashtirishning dunyo tendensiyasi


Bu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, dunyo miqyosida yildan-yilga ekologik menejment sistemasini sertifikatlashtirish ortib bormoqda. Bu esa bugungi kunda ekologik muommolarni hal etish eng muhim muammolardan biri ekanligidan dalolat beradi.

Hozirgi kunda 138 dan ortiqroq mamlakatlarda ekologik menejment sistemalari sertifikatlashtirilgan. Berilgan sertifikatlar soni bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni Yaponiya, ikkinchi o'rinni Xitoy, uchinchi o'rinni esa Ispaniya egallaydi.

ISO 14001 asosan ekologik menejment sistemasini sertifikatlashtirish maqsadiga mo'ljallangandir. Standartda sistemaga talablar ko'rsatiladi va uning modelini 3-rasmda keltiramiz.

ISO 14001 ning asosiy talablari quydagilar hisoblanadi:

- a) korxonaga rahbarlik sistemasini yaratish ishida faol ishtirok etish;
- b) ekologik siyosatni ishlab chiqish va uni har bir xodim va jamoatchilikka etkazish;
- v) atrof-muhit himoyasiga qaratilgan qonunchilik, huquqiy va boshqa talablar fondini shakllantirish;
- g) korxoning atrof-muhitni himoya qilishi borasidagi maqsad va vazifalarni belgilash dasturini ishlab chiqish va joriy etish;
- d) atrof-muhit menejmenti sistemasini yaratish, joriy etish va faoliyatni ta'minlash;



2-rasm. Atrof –muhit sifati menejmenti sistemasining modeli

е) ishlab chiqarish faoliyatining atrof-muhitga ta'sirini natija-larini o'lash va monitoringini olib borish;

ж) sistema doirasida nomuvofiqliklarni tuzatish, ogohlantirish va ularga barham berish tartiblarini ishlab chiqish;

з) sistemaning ekologik auditini vaqti-vaqti bilan o'tkazib turish;

к) korxona rahbariyatni tamonidan sistemani tahlil qilish va boshqalar.

Ekologik menejment bo'yicha ISO standartlari haqida shu narsani aytish kerakki, bu standartlar ishlab chiqilishiga qadar ham Sobiq Ittifoq davrida ham atrof-muhitni himoya qilish va tabiiy resurslarni tejab – tergab foydalanish borasida davlat standarti sistemasi joriy etilgan. Bu sistemaning standartlarini ishlab chiqishga asos bo'lib GOST 17.0.0.01-76 standarti hisoblangan. Aynan shu standartda atrof – muhitni himoya qilishda suv, atmosfera, biologik resurslar, tuproq, er, flora, landshaft, qazilma boyliklar kabi omillar qanday talablarga javob berishi haqida talablar keltirilgan.

Korxonalarda MS ISO 14000 seriyali standart keltirilgan talablarga mos ravishda joriy etilishi mumkin:

Korxonaning atrof – muhitni saqlash sifatini oshirishga bo'lgan talabiini baholash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- korxonaning atrof – muhitni saqlash sohasidagi faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik va me'yoriy huquqiy hujjatlarini identifikatsiyalash;

- korxonaning atrof – muhitga eng yomon ta'sir ko'rsatuvchi faoliyat sohasini identifikatsiyalash;

- korxona mahsulotlarining atrof – muhitga ta'sir darajasini tahlil qilish;

- atrof – muhitga ta'sir ko'rsatayotgan xom ashyo, energiya resurslari va boshqalarni tahlil qilish;

- yo'l qo'yilgan kamchiliklar sabablarini tahlil qilish va ularni tezda bartaraf etish;

- atrof – muhitga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan avariya holatlarini identifikatsiyalash;

- korxonani ekologik sog'lomlashtirishga bo'lgan jamoatchilikning, aksionerlarning, davlat organlarining qiziqishini tahlil qilish;

- korxonada amalda qo'llanilayotgan atrof – muhit sifati menejmentini tahlil qilish va boshqalar;

Baholash natijalari hisobot shaklida rasmiylashtiriladi va rahbariyatga taqdim etiladi.

Atrof – muhit sifati menejmenti quyidagi tamoyillarga asosan tuziladi:

1. **Majburiy va ekologik siyosat.** Korxona iqtisodiy siyosatini belgilashi va atrof – muhit sifati boshqaruvi sistemasiga talablarni shakllantirish lozim;

2. **Rejalashtirish.** Korxona ekologik siyosatni amalga oshirish rejasini shakllantirishi zarur;

3. **Joriy etish.** Sistemani samarali joriy etish uchun korxona maqsadga erishish mexanizmlarini ishlab chiqishi talab etiladi;

4. **O'lchash va baholash.** Korxona o'lchash, nazorat va atrof – muhit ekologiyasini aholab turishi kerak;

5. Sistemaning holatini **tahlil etishi** va **takomillashtirib borishi** lozim.

Ishlab chiqilgan atrof – muhit sifati menejmenti sistemasini sertifikatlashtirish sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditatsiyadan o'tgan organ tomonidan olib boriladi.

Nazorat savollar:

1. ISO 9000 seriyasidagi standart qachon va qaysi tashkilot tomonidan ishlab chiqilgan?
2. ISO 9000 seriyasidagi standartlarni ishlab chiqishga qanday standartlar asos bo'lib xizmat qilgan?
3. Sifat menejmenti sistemasini qanday tushunasiz?
4. Sifat menejmenti sistemasiga talablarni belgilaydigan ISO standartlari kompleksi o'z ichiga qanday standartlarni qamrab oladi?

Test savollari

1. Xalqaro standartlash amaliyotida qaysi seriyasidagi standartlar korxonaning sifat boshqaruvi sistemasiga talablar o'rnatuvchi ilk bor joriy etilgan standartlardan hisoblanadi?

- A) ISO 9000
- B) ISO 14000
- C) ISO 90011
- D) ISO 14001:2004

2. ISO xalqaro tashkiloti tomonidan QAYSI seriyadagi "Atrof-muhit sifatini boshqarish" standarti qabul qilindi?

- A) 14000
- B) 9000
- C) 90000
- D) 2004

3. Bugungi kunda MS ISO 14000 seriyadagi standartlar talabi bo'yicha korxonalarda qanday sistemasi shakllanmoqda?

- A) ekologik menejment
- B) ekologik
- C) iqtisodiy menejment
- D) menejment

4. Hozirgi kunda qanchadan ortiqroq mamlakatlarda ekologik menejment sistemalari sertifikatlashtirilgan?

- A) 138
- B) 140
- C) 120
- D) 110

5. Berilgan sertifikatlar soni bo'yicha dunyoda qaysi davlat birinchi o'rinda?

- A) Yaponiya

- B) Xitoy
- C) Ispaniya
- D) Germaniya

6. Atrof – muhit sifati menejmenti nechta tamoyillarga asosan tuziladi?

- A) 5
- B) 4
- C) 3
- D) 2

7. Ishlab chiqilgan atrof – muhit sifati menejmenti sistemasini sertifikatlashtirish bo'yicha qanday organ tomonidan olib boriladi?

- A) akkreditatsiyadan o'tgan organ
- B) nazorat organlari
- C) akkreditatsiyadan o'tmagan organ
- D) davlat organlari

10-amaliy mashg'ulot.

MAHSULOTLAR SIFATNI NAZORAT QILISHNING STATISTIK USULLARI

Mashg'ulot rejasi:

10.1. Mahsulotlar sifatni nazorat qilishning statistik usullari.

10.2. Sifat funksiyasini joylashtirish (yoki tizimlashtirish) metodologiyasi (Sifat funksiyasini joylashtirish - QFD)

Mashg'ulotning maqsadi: Mahsulotlar sifatni nazorat qilishning statistik usullari ni o'rganish

Nazariy qism. Zamonaviy xalqaro bozorni mahsulot, ishlar va xizmatlarni sertifikatlashtirishsiz tassavur qilish mumkin emas. Sertifikatlashtirish mahsulot yoki xizmatlarni muayyan standart yoki texnik shartlarga mos kelishini tasdiqlash maqsadida o'tkaziladigan faoliyatni aks ettiradi.

«Sertifikatlashtirish» iborasi lotincha so'zdan olingan bo'lib, «to'g'ri qilingan» degan ma'noni bildiradi. Mahsulot, xizmat yoki jarayonning to'g'ri qilinganligi yoki bajarilganligi, ularning me'yoriy hujjatlarda belgilangan talablarga mos kelishini ishlab chiqaruvchi va iste'molchilarga tobe bo'lmagan uchinchi tomon yordamida tekshirish orqali aniqlanadi. Shuning uchun ham me'yoriy hujjatlar talablariga to'liq mos keladigan mahsulot, xizmat yoki jarayon sertifikatlashtirishdan bimalol o'tadi. Amalda mahsulotdan tashqari, shu mahsulotni ishlab chiqarayotgan korxonaning sifat tizimlari ham sertifikatlashtirishdan o'tkaziladi. Sertifikatlashtirishdan asosiy maqsad – mahsulot ishlab chiqarayotgan korxonaning me'yoriy hujjatlar talablari yoki iste'molchilar bilan tuzilgan shartnomalarda ko'rsatilgan talablarga mos keladigan mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatiga ishonch hosil qilishdan iboratdir. Shuning uchun ham korxonalarning mahsulotlari va sifat tizimlarining sertifikatlashtirishdan o'tkazilishi milliy mahsulotimizni, jumladan oziq-ovqat mahsulotlarini jahon bozorida raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 28-dekabrda gi "Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida" gi qonuni va O'zRST 5.0:1998 (O'zbekiston sertifikatlashtirish milliy tizimi. Asosiy qoidalar)da mahsulot, xizmat, jarayon yoki boshqa ob'ektlarni sertifikatlashtirish bo'yicha huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslari hamda sertifikatlashtirishda qatnashuvchi tomonlarning huquqlari, vazifalari va javobgarliklari belgilab berilgan.

Sertifikatlashtirish milliy tizimi – sertifikatlashtirish bo'yicha o'zining boshqaruv va ijro idoralari (organlari) hamda tartib-qoidalariga ega bo'lgan va davlat miqyosida amal qiladigan tizim hisoblanadi. Respublikamizda sertifikatlashtirish milliy tizimi to'liq, shakllangan va u amalda. Uning qoida va tartiblari ISO/MEK va ISO xalqaro standartlari, EN 45000 Yevropa standartlari, sertifikatlashtirish bilan shug'ullanuvchi boshqa xalqaro me'yorlar hamda qoidalarga muvofiq tuzilgan. Bunday choralar, o'z navbatida sertifikatlashtirish idoralari tomonidan berilgan muvofiqlik sertifikatlari va belgilarini chet mamlakatlarda ham tan olinishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi qoidalari va «Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida»gi qonuni birgina respublikamizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga emas, balki chetdan keltirilgan mahsulotlar uchun ham taalluqlidir.

Sertifikatlash milliy tizimining asosiy maqsadi sertifikatlashtirish sohasidagi asosiy atama va tushunchalarning mazmuni, respublikada sertifikatlashtirish jarayonlarini o'tkazish tartib va qoidalarini belgilash hisoblanadi. Sertifikatlashtirishning asosiy maqsadi esa, inson hayoti va sog'ligi va atrof-muhitni turli zararli ta'sirlardan saqlash hamda tovarlar o'zaro almashuvi va muvofiqligi bo'yicha iste'molchilar manfaatini himoya qilish, xalqaro tijorat ishlarida to'siqlarni bartaraf etish va milliy mahsulotning raqobatbardoshligini oshirishdan iborat.

Mahsulotlarni sertifikatlashtirish bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlangan idoralar tomonidan amalga oshiriladi. Sertifikatlashtirish sinovlarini akkreditlangan sinov laboratoriyalari (markazlari) o'tkazadi.

Sertifikatlashtirishning vazifalari uning asosiy maqsadidan kelib chiqadi va quyidagilardan iborat:

- inson hayoti va sog'ligi, yuridik va jismoniy shaxslarning mulki hamda atrof-muhit uchun zararli yoki xavfli bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish ustidan qat'iy nazorot o'rnatish;
- jahon bozorida milliy mahsulot raqobatbardoshligini oshirish;
- milliy va qo'shma korxonalar hamda tadbirkorlarning xalqaro tijorat ishlarida qatnashishi uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratish;
- iste'molchini mahsulot ishlab chiqaruvchi (sotuvchi, bajaruvchi)ning noinsofligidan himoya qilish;
- iste'molchilarning talablarida ko'rsatilgan talablarni mahsulot sifati orqali ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasining «Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida»gi qonuniga asosan sertifikatlashtirish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahamasi tomonidan tasdiqlanadigan majburiy sertifikatlashtirishdan o'tkazilishi lozim bo'lgan mahsulotlar va xizmatlarning ro'yxati va qonun hujjatlari talablari asosida o'tkaziladi. Sertifikatlashtirish bo'yicha qonun hujjatlarining asosini O'zbekiston Respublikasining «Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida»gi, «Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to'g'risida»gi, «O'simliklar karantini to'g'risida»gi va «Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonunlar tashkil qiladi va bu qonunlar talablariga ko'ra mahsulotlar majburiy sertifikatlashtirishdan o'tkaziladi. Majburiy sertifikatlashtirishni o'tkazish bo'yicha ishlarni tashkil qilish O'zdavstandart («O'zstandart» agentligi)ga yoki uning topshirig'i bo'yicha majburiy akkreditlashtirilgan holda sertifikatlashtirish bo'yicha boshqa idoralarga yuklatiladi. Majburiy sertifikatlashtirish sub'ektlari O'zdavstandart («O'zstandart» agentligi), sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar, sinov laboratoriyalari (markazlari), tekshirish idoralari va mahsulot tayyorlovchilar (sotuvchilar) hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimida qo'llanishi shart bo'lgan atama va ta'riflar amaldagi O'z.RST 5.5-93 (O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi. Asosiy atamalar va ta'riflar) standarti va O'zbekiston Respublikasining «Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida»gi qonunida ko'rsatilgan.

Sertifikatlashtirish bo'yicha atamalar va tushunchalar quyidagicha ta'riflanadi:

Muvofiqlik - bu mahsulot, xizmat yoki jarayonga belgilangan barcha talablarga rioya qilish yoki ularni bajarishlikdir. Mahsulot muvofiqligini ishlab chiqaruvchi va iste'molchilardan manfaatdor bo'lmagan uchinchi tomon (tashkilot yoki shaxs) tasdiqlaydi. Odatda, bu holda uchinchi tomon vazifasini sinov laboratoriyalari (markazlari) bajaradi. Chunki, har qanday sinalgan namunaning ma'lum bir standart yoki boshqa me'yoriy hujjat talabiga mos kelishini sinov laboratoriyalari tasdiqlaydi. Bunday faoliyatga muvofiqlikni sertifikatlashtirish deyiladi.

Mahsulot, xizmat yoki jarayonning me'yoriy hujjatlarda belgilangan talablarga asosan ishlab chiqarilganligini tasdiqlash uchun uchinchi tomon ham ma'lum bir tartibda faoliyat olib boradi. Bunday (uchinchi tomon) faoliyatning tarkibi va tartibi sertifikatlashtirish sxemasi deyiladi.

Muvofiqlik sertifikat - mahsulot, xizmat yoki jarayonlarini ma'lum bir standart yoki boshqa me'yoriy hujjatlarga mos kelishini ishonitiradigan va sertifikatlashtirish tizimi qoidalari asosida nashr etilgan hujjatdir. Muvofiqlik sertifikat, uchinchi tomondan mahsulot, xizmat yoki jarayonlar ularga belgilangan talablar asosida ishlab chiqarilganligini tasdiqlagan holda beriladi.

Muvofiqlik belgisi ham xuddi shu asosda beriladi. Muvofiqlik belgisi deb, ushbu mahsulot, xizmat yoki jarayonni ma'lum standart yoki boshqa me'yoriy hujjatga mos kelishini ishonitiruvchi sertifikatlashtirish tizimi qoidalari asosida berilgan yoki ishlatiladigan va ma'lum tartibda himoya qilinadigan belgiga aytiladi.

Nazorat savollari:

1. Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligini ta'minlash sohasidagi davlat boshqaruvi qanday organlar tomonidan amalga oshiriladi?
2. Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat tomonidan normalash qanday amalga oshiriladi?
3. Oziq-ovqat mahsulotini va uskunalarni davlat ro'yxatidan o'tkazishda nimalarga yo'l qo'yilmaydi?

Test savollari

1. «Sertifikatlashtirish» iborasi qaysi so'zdan olingan?
A) Lotincha
B) Forscha
C) Grekcha
D) Ispancha
2. «Sertifikatlashtirish» iborasi qanday ma'noni bildiradi?
A) «to'g'ri qilingan»
B) «tekshirilgan»
C) «ruxsat berilgan»
D) «to'g'ri yo'lga qo'yilgan»
3. Qachon «Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida» gi qonuni qabul qilindi?
A) 1993-yil 28-dekabrda
B) 1994-yil 28-oktyabrda
C) 1993-yil 20-dekabrda
D) 1990-yil 28-noyabrda
4. Muvofiqlik sertifikat nima?

A) mahsulot, xizmat yoki jarayonlarini ma'lum bir standart yoki boshqa me'yoriy hujjatlarga mos kelishini ishontiradigan va sertifikatlashtirish tizimi qoidalari asosida nashr etilgan hujjatdir

B) bu mahsulot, xizmat yoki jarayonga belgilangan barcha talablarga rioya qilish yoki ularni bajarishlikdir

C) Mahsulot, xizmat yoki jarayonning me'yoriy hujjatlarda belgilangan talablarga asosan ishlab chiqarilganligini tasdiqlash uchun uchinchi tomon ham ma'lum bir tartibdagi faoliyati

D) Hamma javob to'g'ri

5. Muvofiqlik nima?

A) bu mahsulot, xizmat yoki jarayonga belgilangan barcha talablarga rioya qilish yoki ularni bajarishlikdir

B) mahsulot, xizmat yoki jarayonlarini ma'lum bir standart yoki boshqa me'yoriy hujjatlarga mos kelishini ishontiradigan va sertifikatlashtirish tizimi qoidalari asosida nashr etilgan hujjatdir

C) mahsulot, xizmat yoki jarayonni ma'lum standart yoki boshqa me'yoriy hujjatga mos kelishini ishontiruvchi sertifikatlashtirish tizimi qoidalari asosida berilgan yoki ishlatiladigan va ma'lum tartibda himoya qilinadigan belgiga aytiladi

D) hamma javob to'g'ri

6. Muvofiqlik belgisi nima?

A) mahsulot, xizmat yoki jarayonni ma'lum standart yoki boshqa me'yoriy hujjatga mos kelishini ishontiruvchi sertifikatlashtirish tizimi qoidalari asosida berilgan yoki ishlatiladigan va ma'lum tartibda himoya qilinadigan belgiga aytiladi

B) bu mahsulot, xizmat yoki jarayonga belgilangan barcha talablarga rioya qilish yoki ularni bajarishlikdir

C) mahsulot, xizmat yoki jarayonlarini ma'lum bir standart yoki boshqa me'yoriy hujjatlarga mos kelishini ishontiradigan va sertifikatlashtirish tizimi qoidalari asosida nashr etilgan hujjatdir

D) to'g'ri javob yo'q

7. Majburiy sertifikatlashtirish sub'ektlari nimalar?

A) O'zdavstandart («O'zstandart» agentligi),

B) sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar, tekshirish idoralari

C) sinov laboratoriyalari (markazlari), mahsulot tayyorlovchilar (sotuvchilar)

D) Hamma javob to'g'ri

11-amaliy mashg'ulot

SIFAT NAZORATINI TASHKIL ETISH VA TEXNIK REGLAMENTI.

Mashg'ulot rejasi:

11.1.1. Sifat nazoratini tashkil etish Texnik reglamenti.

11.2. Mahsulot sifati va uni shakllantiruvchi omillar.

Mashg'ulotning maqsadi: Sifat nazoratini tashkil etish va texnik reglamentini o'rganish

Nazariy qism. O'zbekiston Respublikasida mahsulot (xizmat)ni sertifikatlashtirish majburiy va ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi.

Majburiy sertifikatlashtirish – sertifikatlashtirish vakolatiga ega bo'lgan idora tomonidan mahsulot (xizmat)ning standartlardagi majburiy talablarga muvofiqligini tasdiqlashdir.

Ixtiyoriy sertifikatlashtirish deganda, ishlab chiqaruvchi (bajaruvchi), sotuvchi (ta'minlovchi) yoki iste'molchi tashabbusi bilan ixtiyoriy ravishda o'tkaziladigan sertifikatlashtirish tushuniladi.

Sertifikatlashtirish sohasidagi guvohnoma - sertifikatlashtirish tizimi qoidalariga asosan nashr etilgan hujjatdir. Bu hujjat sifat sertifikati bilan birgalikda mahsuloti yoki xizmati sertifikatlashtirishdan o'tkazilgan shaxs yoki idora (korxona, tashkilot)ga beriladi va bu hujjat (litsenziya) shaxs yoki idoraga undan tegishli ravishda foydalanish huquqini beradi.

Sifat sertifikati - yetkazib berilayotgan molga ilova qilinadigan va uning sifatini tasdiqlaydigan hujjat hisoblanadi.

Mahsulot, xizmat va jarayonlardan tashqari korxona yoki tashkilotning ishlab chiqarish sharoitlari ham sertifikatlashtirishdan o'tkaziladi. Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish - bu sertifikatlashtirish idorasi yoki boshqa maxsus vakolatga ega bo'lgan idora tomonidan ma'lum mahsulotni ishlab chiqarish uchun zarur va yetarli sharoitlar mavjudligini, unga tegishli bo'lgan me'yoriy hujjatlarda belgilangan talablarning barqarorligi va sertifikatlashtirishda nazorat ostiga olinishini ta'minlashning rasmiy tasdig'idir.

Sifat tizimini sertifikatlashtirish deganda, tizimning xalqaro yoki milliy standart talablariga muvofiq kelishini tekshirish, baholash va sertifikat berish orqali tasdiqlash haqidagi faoliyat tushuniladi. Sifat tizimini sertifikatlashtirish ta'minlovchining raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqara olishiga to'liq ishonch hosil qilish maqsadida o'tkaziladi.

Mahsulotning tavsiflari milliy va xalqaro me'yoriy-texnik hujjatlarga mos kelishini aniqlash uchun o'tkaziladigan sinovlarga

sertifikatlashtirish sinovlari deb ataladi. Sertifikatlashtirish sinovlari uchun mahsulotdan namunalar olinadi va ushbu namunalar bo'yicha sertifikatlashtirish sinovlari o'tkaziladi.

Sinov laboratoriyalari (markazlari)ning ma'lum sinovlar yoki sinovlarning ma'lum xillarini amalga oshirish huquqlarini rasmiy jihatdan tan olish laboratoriyalarni akkreditlash deyiladi. Laboratoriyalarni akkreditlash uchun akkreditlovchi idoralar o'z ish tartibi va boshqarish qoidalariga ega bo'lishi lozim. O'z ish tartibi va boshqarish qoidalariga ega bo'lgan tizim laboratoriyalarni akkreditlash tizimi deb ataladi. Laboratoriyalarni akkreditlash mezonlari deganda esa, sinov laboratoriyasini akkreditlash uchun qanoatlanirishi lozim bo'lgan akkreditlash idorasi tomonidan ishlatiladigan barcha talablar majmuasi tushuniladi. Laboratoriyaning akkreditlash maqsadida uning mezonlariga muvofiqligini tekshirish orqali aniqlash laboratoriyani attestatsiyalash deb ataladi. Akkreditlashdan o'tgan sinov laboratoriyalari esa akkreditlangan laboratoriya deyiladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilganlardan tashqari sertifikatlashtirish sohasida «Ekspert-auditor», «Tekshiruvchan nazorat» kabi atamalar va «bir, ikki va ko'p tomonlama kelishuvlar» degan tushunchalar ham ishlatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi davlat standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish markazi O'z davlatdagi O'zbekiston Respublikasining «Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida»gi qonunining 5-moddasida ko'rsatilgandek, O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish bo'yicha milliy idorasi hisoblanadi va u quyidagi yo'nalishda o'z faoliyatini olib boradi:

- sertifikatlashtirish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, sertifikatlashtirishni o'tkazish bo'yicha umumiy qoidalar belgilash va ular haqida rasmiy axborotlarni matbuotda bosib chiqish;

- respublikamizda sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha dasturlar loyihalarini ishlab chiqish va ularni hukumat muhokamasiga taqdim etish;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda xalqaro sertifikatlashtirish tizimlariga qo'shilish to'g'risida qarorlar qabul qilish hamda sertifikatlashtirish natijalarini o'zaro tan olish to'g'risida bitimlar tuzish, sertifikatlashtirish masalalari bo'yicha boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qilish va O'zbekiston Respublikasini ushbu tashkilotlar faoliyatida qatnashishlarini ta'minlash;

- majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlar ro'yxatini belgilash;

- bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar, sinov laboratoriyalari (markazlari), sertifikatlashtirish sohasi bo'yicha nazorat qilish idoralari hamda sifat bo'yicha ekspert-auditorlarni akkreditlash;

- sertifikatlashtirilgan mahsulotlar, sifatni boshqarish tizimlari, sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlangan idoralar, sinov laboratoriyalari (markazlari), sifat bo'yicha ekspert-auditorlarning Davlat reestrini yuritish hamda oziq-ovqat mahsulotlari va ularni tayyorlashda ishlatiladigan jihozlarning davlat ro'yxatidan o'tkazish;

- sertifikatlashtirish qoidalariga rioya qilish hamda sinov laboratoriyalari va bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish idoralari tomonidan sertifikatlashtirilgan mahsulotlar ustidan davlat tekshiruvi va nazoratini amalga oshirish;

- muvofiqlik sertifikatlari va belgilarini amal qilishini bekor qilish va to'xtatish, sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar (organlar)ning akkreditlanganligi haqidagi guvohnomalarini bekor qilish, sertifikatlashtirish bo'yicha qonuniy me'yorlarni buzganligi uchun sinov laboratoriyalar (markazlari)ning faoliyatini to'xtatib qo'yish.

Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha O'zdavstandart («O'zstandart» agentligi) tomonidan akkreditlangan idoralar quyidagi vazifalarni bajaradi:

- bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish tizimini tuzish va ularning amal qilinishini ta'minlash;

- sertifikatlashtirishni tashkil qilish va o'tkazish;

- milliy muvofiqlik yoki chet mamlakatlarning muvofiqlik sertifikat belgilarini berish va rasmiylashtirish;

- sertifikatlashtirilgan mahsulot ustidan tekshiruvlarni amalga oshirish;

- respublikada sertifikatlashtirish milliy tizimining talablariga asosan sertifikatlashtiriladigan mahsulot turlari va majburiy sertifikatlashtirish uchun me'yoriy hujjatlarni belgilash;

- sertifikatlashtirish, akkreditlash va sinovlar bo'yicha tizimining davlat ro'yxatini olib borish;

- mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartiblarini aniqlash.

Yuqorida ta'kidlanganidek, respublika hududlarida sertifikatlashtirish bo'yicha milliy idora (organ)lar vazifalarini standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish metrologik

xizmatlar (SMSMX) bajaradi. Bu hujjatlar O'zdavstandart vakolati asosida quyidagi ishlarni bajaradi:

- mahsulot (xizmat) ishlab chiqaruvchilar va ta'minlovchilarga sertifikatlashtirish qoidalariga to'g'risida rasmiy ravishda xabar berish;

- sertifikatlashtirish qoidalariga rioya qilish ustidan davlat tekshiruvi va nazorati hamda ular tomonidan sertifikatlashtirilgan mahsulotlarning inspeksion tekshiruvini amalga oshirish;

- ushbu hududda sertifikatlashtirilgan mahsulotlar reestrini yuritish;

- O'zdavstandart topshirig'iga asosan sertifikatlashtirish bo'yicha hududiy idoralar va sinov laboratoriyalari (markazlari)ni akkreditlash bo'yicha komissiyalar tashkil qilish, ularning ishi, idora va laboratoriyalari (markazlari) hamda inspeksion tekshiruvlarida ishtirok etish.

Barcha sertifikatlashtirish idoralari va sertifikatlashtirish sinovlarini o'tkazuvchi laboratoriyalar (markazlar) majburiy ravishda akkreditatsiyadan o'tishadi.

Akkreditlash yoki akkreditatsiyadan o'tish deganda, muvofiqlikni baholash va tasdiqlash, shuningdek inson faoliyatining iqtisodiy, huquqiy, texnik va boshqa turli sohalarida sertifikatlashtirishni amalga oshirayotgan laboratoriya va idoralarning layoqatligini baholash hamda tan olishning xalqaro amaliyotida tan olingan usuli tushuniladi.

Nazorat savollari:

1. Qanday hollarda oziq-ovqat mahsulotini realizatsiya qilishga yo'l qo'yilmaydi?

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta'minlash chora tadbirlari to'g'risida" gi sonli farmoni nimaga qaratilgan?

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta'minlash chora tadbirlari to'g'risida" gi sonli farmonida nimalarni amalga oshirilishi nazarda tutilgan?

Test savollari

1. Majburiy sertifikatlashtirish nima?

A) sertifikatlashtirish vakolatiga ega bo'lgan idora tomonidan mahsulot (xizmat)ning standartlardagi majburiy talablarga muvofiqligini tasdiqlashdir.

B) ishlab chiqaruvchi (bajaruvchi), sotuvchi (ta'minlovchi) yoki iste'molchi tashabbusi bilan ixtiyoriy ravishda o'tkaziladigan sertifikatlashtirish tushuniladi.

C) sertifikatlashtirish tizimi qoidalariga asosan nashr etilgan hujjatdir.

D) yetkazib berilayotgan molga ilova qilinadigan va uning sifatini tasdiqlaydigan hujjat hisoblanadi

2. Ixtiyoriy sertifikatlashtirish nima?

A) ishlab chiqaruvchi (bajaruvchi), sotuvchi (ta'minlovchi) yoki iste'molchi tashabbusi bilan ixtiyoriy ravishda o'tkaziladigan sertifikatlashtirish tushuniladi.

B) sertifikatlashtirish tizimi qoidalariga asosan nashr etilgan hujjatdir.

C) yetkazib berilayotgan molga ilova qilinadigan va uning sifatini tasdiqlaydigan hujjat hisoblanadi

D) sertifikatlashtirish vakolatiga ega bo'lgan idora tomonidan mahsulot (xizmat)ning standartlardagi majburiy talablarga muvofiqligini tasdiqlashdir.

3. Sertifikatlashtirish sohasidagi guvohnoma deb nimaga aytiladi?

A) sertifikatlashtirish tizimi qoidalariga asosan nashr etilgan hujjatdir

B) yetkazib berilayotgan molga ilova qilinadigan va uning sifatini tasdiqlaydigan hujjat hisoblanadi

C) sertifikatlashtirish vakolatiga ega bo'lgan idora tomonidan mahsulot (xizmat)ning standartlardagi majburiy talablarga muvofiqligini tasdiqlashdir.

D) ishlab chiqaruvchi (bajaruvchi), sotuvchi (ta'minlovchi) yoki iste'molchi tashabbusi bilan ixtiyoriy ravishda o'tkaziladigan sertifikatlashtirish tushuniladi

4. Sifat sertifikati deb nimaga aytiladi?

A) yetkazib berilayotgan molga ilova qilinadigan va uning sifatini tasdiqlaydigan hujjat hisoblanadi.

B) sertifikatlashtirish vakolatiga ega bo'lgan idora tomonidan mahsulot (xizmat)ning standartlardagi majburiy talablarga muvofiqligini tasdiqlashdir.

C) ishlab chiqaruvchi (bajaruvchi), sotuvchi (ta'minlovchi) yoki iste'molchi tashabbusi bilan ixtiyoriy ravishda o'tkaziladigan sertifikatlashtirish tushuniladi

D) sertifikatlashtirish tizimi qoidalariga asosan nashr etilgan hujjatdir

5. Akkreditlash yoki akkreditatsiyadan o'tish deganda nimani tushunasiz?

A) muvofiqlikni baholash va tasdiqlash, shuningdek inson faoliyatining iqtisodiy, huquqiy, texnik va boshqa turli sohalarida sertifikatlashtirishni amalga oshirayotgan laboratoriya va idoralarning layoqatligini baholash hamda tan olishning xalqaro amaliyotida tan olingan usuli tushuniladi.

B) sinov laboratoriyasini akkreditlash uchun qanoatlantirishi lozim bo'lgan akkreditlash idorasi tomonidan ishlatiladigan barcha talablar majmuasi tushuniladi.

C) Mahsulotning tavsiflari milliy va xalqaro me'yoriy-texnik hujjatlarga mos kelishini aniqlash uchun o'tkaziladigan sinovlarga aytiladi.

D) tizimning xalqaro yoki milliy standart talablariga muvofiq kelishini tekshirish, baholash va sertifikat berish orqali tasdiqlash haqidagi faoliyat tushuniladi.

6. Laboratoriyalarni akkreditlash deb nimaga aytiladi?

A) Sinov laboratoriyalari (markazlari)ning ma'lum sinovlar yoki sinovlarning ma'lum xillarini amalga oshirish huquqlarini rasmiy jihatdan tan olish

B) sinov laboratoriyasini akkreditlash uchun qanoatlantirishi lozim bo'lgan akkreditlash idorasi tomonidan ishlatiladigan barcha talablar majmuasi tushuniladi

C) Laboratoriyani akkreditlash maqsadida uning mezonlariga muvofiqligini tekshirish orqali aniqlashga

D) Hamma javoblar to'g'ri

7. Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish bu...

A) bu sertifikatlashtirish idorasi yoki boshqa maxsus vakolatga ega bo'lgan idora tomonidan ma'lum mahsulotni ishlab chiqarish uchun zarur va yetarli sharoitlar mavjudligini, unga tegishli bo'lgan me'yoriy hujjatlarda belgilangan talablarning barqarorligi va sertifikatlashtirishda nazorat ostiga olinishini ta'minlashning rasmiy tasdig'idir

B) yetkazib berilayotgan molga ilova qilinadigan va uning sifatini tasdiqlaydigan hujjat hisoblanadi

C) tizimning xalqaro yoki milliy standart talablariga muvofiq kelishini tekshirish, baholash va sertifikat berish orqali tasdiqlash haqidagi faoliyat tushuniladi.

D) Mahsulotning tavsiflari milliy va xalqaro me'yoriy-texnik hujjatlarga mos kelishini aniqlash uchun o'tkaziladigan sinovlardir.



12-amaliy mashg'ulot

MAHSULOT SIFATINI ORGANOLEPTIK BAHOLASH.

Mashg'ulot rejasi:

12.1. Xomashyo va oziq-ovqat mahsulotlarining sifat ko'rsatkichlarini aniqlash.

12.2. Sifatni nazorat qilishning standart, arbitraj va ekspress usullari, ularning xususiyatlari.

12.3. Mahsulot sifatini organoleptik baholash.

Mashg'ulotning maqsadi: Mahsulot sifatini organoleptik baholashni o'rganish

Nazariy qism. O'zbekiston Respublikasining eksport hajmi yildan yilga o'sishda davom etmoqda. Meva-sabzavotlarni yetishtirish bo'yicha mamlakatimizda so'nggi yillarda bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Natijada, TIF TNning 07-guruh (sabzavotlar va ildiz mevalar) tovarlarining eksport hajmi ortdi. 2017-2018-yillarda O'zbekiston bu guruh tovarlarini eksport qilish bo'yicha dunyoda 7-o'ringa ko'tarildi. 2017-yilda O'zbekistonning 07-guruh tovarlari eksporti 3,4 mlrd AQSH dollari, 2018-yilda 3,2 mlrd AQSH dollari tashkil etgan. Bu mahsulotlarni O'zbekiston asosan Qozog'iston, Rossiya, Xitoy va Afg'oniston davlatlariga eksport qiladi. Eksport va import qilingan oziq - ovqat mahsulotlarini ekspertiza qilish va ularning sifatini aniqlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Oziq-ovqat mahsulotlarini ekspertiza qilish quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi: 1. Organoleptika usul. 2. Laboratoriya (tajriba) usuli.

Oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini tekshirishda organoleptik usul katta ahamiyatga ega. Bu usul bilan ularning ta'mi, rangi, hidi, konsistensiyasi, tashqi ko'rinishlari insonlarning sezgi a'zolari yordamida baholanadi. Organoleptik usulning qulaylik tomonlari shundan iboratki, u ko'p xarajatlar, kimyoviy reaktivlar, laboratoriyaiya asboblarni talab qilmaydi hamda mahsulotning sifati to'g'risida tezda xulosa chiqarish imkonini beradi. Uning kamchiligi esa, bu usulning subyektivligida. Demak, bu mahsulot sifatiga turli kishilar har xil baho berishlari mumkin.

Bundan tashqari organoleptik usul bilan tovarlarning sifati tekshirilganda, ularning sifat ko'rsatkichlarini raqamlar bilan ifodalab bo'lmaydi yoki mahsulotlarning sifati to'g'risida to'liq ma'lumot ham olish qiyin bo'ladi. Masalan, bu usul bilan mahsulotning biologik qiymatini yoki uning zararsizligini aytish mumkin emas. Biroq, mahsulotning sifatiga organoleptik usul bilan baho berish yuqori

malakali, tajribali degustatorlar ishtirokida olib boriladi, natijada yo'qo'yiladigan xatolar ham shuncha kam bo'ladi. Ammo shuni nazarda tutish kerakki, sezgi a'zolarimiz mahsulotning boshqa tekshirish usullari bilan aniqlash qiyin bo'lgan va aniqlab bo'lmaydigan o'ziga xos xushbo'y ta'm xususiyatlarini tezda seza oladi. Masalan, choy, kofe va vino mahsulotlari tarkibiga kiruvchi xushbo'y hid beruvchi murakkab moddalarni aniqlash juda qiyinligi uchun organoleptik usul yagona usul hisoblanadi.

Oziq-ovqat mahsulotlariga organoleptik baho berishda ta'm bilish xususiyatlari ularning sifatini belgilaydigan asosiy ko'rsatkichlardan biridir. Inson organizmida ta'mni sezadigan asosiy a'zo tildir. Oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini organoleptik usulda baholash standart talablarida olib boriladi. Oziq-ovqat mahsulotlarining hidi esa ularning sifatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Hamma oziq-ovqat mahsulotlari ham ma'lum darajada o'ziga xos hidga ega. Ularning hidiga qarab qanday mahsulot, buzilgan-buzilmagan, tozaligi to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Mahsulotlarda turli xil hid beruvchi moddalar aralashmasi murakkab bir xil hid berishi mumkin, masalan, vino, konyak, kofe, choy va pishloqlarning xushbo'y hidi bunga misol bo'la oladi.

Oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini organoleptik usulda aniqlanganda va davlat standartlari talablari bo'yicha ham ularning ta'm va hid ko'rsatkichlari inobatga olinadi. Bundan tashqari, oziq-ovqat mahsulotlarining organoleptik usulda aniqlanadigan organoleptik ko'rsatkichlariga ularning rangi, tashqi ko'rinishi, konsistensiyasi ham kiradi. Bu ko'rsatkichlar ko'rish, eshitish va sezish a'zolari yordamida aniqlanadi. Insonning ko'rish a'zosi bo'lgan ko'z yordamida oziq-ovqat mahsulotlarining tashqi ko'rinishi, katta-kichikligi, rangi, shakli, idishlarga qanday joylashganligi, tiniqligi va shu kabilar baholanadi. Oziq-ovqat mahsulotlarining konsistensiyasi, tuzilishi hamda harorati barmoqlar uchida hamda og'iz boshlig'i shilimshiq pardasida joylashgan sezgi organlari orqali aniqlanadi. Mahsulotni qo'l bilan ushlab, uning qattiq yoki yumshoqligini aytish mumkin yoki mahsulot iste'mol qilinganda til uchi yordamida darrov ularning harorati haqida xulosa chiqarish mumkin. Ba'zi oziq-ovqat mahsulotlarining sirtiga biror buyum bilan urib va shundan chiqqan tovushni eshitib ham shu mahsulotning sifati to'g'risida ma'lum bir xulosa qilsa bo'ladi.

Bugungi kunda organoleptik usulning aniqlik darajasini oshirish va uni takomillashtirish borasida tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mahsulotlarga organoleptik usul bilan baho berishning bir necha usullari, ya'ni - ball bilan baholash va taqqoslab baho berish usullari keng qo'llaniladi. Ball ko'rsatkichi bilan baho berish, oziq-ovqat mahsulotlarining sifati asosan 5, 10, 30 va 100 ballik baho bilan tekshiriladi. Mahsulot sifatini ball orqali baholashda ularning umumiy yig'indisi sifat ko'rsatkichlar bo'yicha ajratiladi. Misol sifatida sariyog'ning sifatini 100 balli baho bilan tekshirishni ko'rib chiqamiz. Bu usul bo'yicha sariyog'ning asosiy ko'rsatkichlariga quyidagicha ballar beriladi: Ta'mi va hidi - 50 ball, konsistensiyasi - 25 ball, rangi - 5 ball, tuzlanishi - 10 ball, o'rab-joylanishi - 10 ball, jami -100 ball. Agar sariyog'ning umumiy ball ko'rsatkichi 88 dan 100 ballgacha bo'lsa - oliy navga, 80 dan 87 gacha bo'lsa - 1-navga va nihoyat, 80 dan kam bo'lsa - davlat standart talablariga javob bermaydi. Lekin umumiy balldan tashqari sariyog'ning oliy navi ta'mi va hidi bo'yicha 41 balldan, birinchi navi esa 37 balldan kam baho olmasligi talab etiladi.

Oziq-ovqat mahsulotlarini ball berish tartibining qulayligi shundan iboratki, mahsulotdagi har bir kamchilik tegishli ball bilan baholanadi. Ko'rsatkich uchun belgilangan umumiy ball sonidan olib tashlanadi. So'ngra davlat standartidagi maxsus jadvaldan qancha ballni olib tashlash kerakligi topiladi. Bundan tashqari, tovarlar sifatini baholashning sotsiologik (so'rovnoma o'tkazish) usuli ham mavjud. Sotsiologik usul deb oziq-ovqat mahsulotlarining sifat ko'rsatkichlarini xaridorlar fikriga ko'ra aniqlashga aytiladi.

Tekshirishning fizikaviy va fizik-kimyoviy usullari. Oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini tekshirish - mahsulotning solishtirma og'irligi, erishi, qotishi, yopishqoqligi, va qaynash harorati, optik xususiyatlarini aniqlashdan iboratdir. Mahsulotning solishtirma og'irligi va zichligini areometr, piknometr va gidrostatik tarozilar yordamida o'lchanadi. Solishtirma og'irligi asosida ma'lum darajada kimyoviy tarkibi va sifati haqida so'z yuritish mumkin. Yog'larning erish va qotish harorati asosida ularning tabiatini, tozaligini va ma'lum darajada uning tarkibida qanday yog' kislotalari borligi haqida ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Yog'larning erish va qotish harorati yog'ning qattiq holatdan suyuq holatga yoki suyuq holatdan qattiq holatga o'tish paytidagi haroratini termometr bilan o'lchash natijasida aniqlanadi.

Oziq-ovqat mahsulotlarining optik xususiyatlari esa polyarimetriya, fotokolorimetriya, refraktometriya, lyuminessent hamda xromotografiya usullari yordamida aniqlanadi. Polyarimetriya usuli ba'zi optik faol moddalar eritmalarining nur tebranishlari yo'nalishlarini

o'zgartirish qobiliyatiga asoslangan. Masalan, bu usul bilan saxarometr asbobi yordamida shakar eritmalari tarkibidagi saxarozaning miqdori va ularning tarkibida qanday shakar moddalar borligi aniqlanadi. Refraktometriya usuli bilan oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida yog', suv, spirt, qand va boshqa quruq moddalarning miqdori aniqlanadi. Refraktometriya usuli nurning bir muhitdan ikkinchi bir muhitga o'tish paytida yo'nalishining o'zgarishiga yoki nurning sindirish ko'rsatkichi koeffitsiyentlari aniqlanadi. Masalan, refraktometr yordamida asalning tarkibida qancha suv borligi, sharbatlar tarkibida qancha quruq modda borligi yoki moy va yog'larning sindirish ko'rsatkichlari orqali ularning tozaligi va buzilgan-buzilmaganligi aniqlanadi. Fotokolorimetriya va spektrofotometriya usullari bilan tovarning tarkibidagi moddalar aniqlanadi

Nazorat savollari:

1. Fotokolorimetriya nima?
2. Refraktometriya usuli bilan oziq-ovqat mahsulotlari qanday ko'rsatkichlarga tekshiriladi?
3. Spektrofotometriya usullari qanday usullar hihoblanadi?
4. Polyarimetriya usuli qanday usul?
5. Tekshirishning fizikaviy va fizik-kimyoviy usullari?

Test savollari

1. 2017-2018-yillarda O'zbekiston bu guruh tovarlarini eksport qilish bo'yicha dunyoda nechinchi o'ringa ko'tarildi?

- A) 7
- B) 8
- C) 5
- D) 1

2. 2017-yilda O'zbekistonning 07-guruh tovarlari eksporti qancha mlrd AQSH dollarini tashkil etgan?

- A) 3,4
- B) 3,8
- C) 2,5
- D) 10

3. Ball ko'rsatkichi bilan baho berish, oziq-ovqat mahsulotlarining sifati asosan necha ballik baho bilan tekshiriladi?

- A) 5, 10, 30 va 100
- B) 5, 20, 30 va 100
- C) 5, 10, 50 va 100

D) 5, 10, 30 va 90

4. Sotsiologik usul deb nimaga aytiladi?

A) oziq-ovqat mahsulotlarining sifat ko'rsatkichlarini xaridorlar fikriga ko'ra aniqlashga aytiladi.

B) oziq-ovqat mahsulotlarining sifat ko'rsatkichlarini sotuvchilar fikriga ko'ra aniqlashga aytiladi.

C) Mahsulotning tashqi ko'rinishiga qarab baholanishi

D) Hamma javob to'g'ri

5. Yog'larning erish va qotish harorati yog'ning qattiq holatdan suyuq holatga yoki suyuq holatdan qattiq holatga o'tish paytidagi haroratini qaysi asbob yordamida o'lchanadi?

A) Termometr

B) Areometr

C) Refraktometr

D) Fotokolorimetriya

6. Refraktometr asbobi yordamida nima aniqlanadi?

A) asalning tarkibida qancha suv borligi, sharbatlar tarkibida qancha quruq modda borligi yoki moy va yog'larning sindirish ko'rsatkichlari orqali ularning tozaligi va buzilgan-buzilmaganligi

B) tovarning tarkibidagi moddalar

C) nurning bir muhitdan ikkinchi bir muhitga o'tish paytida yo'nalishining o'zgarishiga yoki nurning sindirish ko'rsatkichi koeffitsiyentlari

D) oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida yog', suv, spirt, qand va boshqa quruq moddalarning miqdori

7. Saxarometr asbobi nimani o'lchashda foydalanamiz?

A) shakar eritmalari tarkibidagi saxarozaning miqdori va ularning tarkibida qanday shakar moddalar borligi

B) asalning tarkibida qancha suv borligi, sharbatlar tarkibida qancha quruq modda borligi yoki moy va yog'larning sindirish ko'rsatkichlari orqali ularning tozaligi va buzilgan-buzilmaganligi

C) tovarning tarkibidagi moddalar

D) nurning bir muhitdan ikkinchi bir muhitga o'tish paytida yo'nalishining o'zgarishiga yoki nurning sindirish ko'rsatkichi koeffitsiyentlari

13-amaliy mashg'ulot

OZIQ-OVQAT XOM ASHYOSI VA HAYVONLARDAN OLINGAN OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI QABUL QILISH TARTIBI VA SHARTLARI.

Mashg'ulot rejasi:

13.1. Oziq-ovqat xom ashyosi va hayvonlardan olingan oziq-ovqat mahsulotlarini qabul qilish tartibi.

13.2. Go'sht va go'sht mahsulotlarini organoleptik baholash. Yarim tayyor mahsulotlar sifatini nazorat qilish.

13.3. Parranda go'shtidan yarim tayyor mahsulotlarni sifatini o'rganish.

Mashg'ulotning maqsadi: Turli xil oziq-ovqatlar xomashyosi va hayvonlardan olingan oziq-ovqat mahsulotlarini qabul qilish tartibi va shartlarini o'rganish.

Nazariy qism. Go'sht va go'sht mahsulotlari o'zining kimyoviy tarkibi va ozuqaviy qiymati bo'yicha insonlar uchun eng zarur va almashtirib bo'lmaydigan oziq-ovqat mahsulotlaridan hisoblanadi.

Mamlakatimizda o'nlab yirik go'sht kombinatlari, ixtisoslashgan xo'jaliklar, xorijiy mamlakatlar bilan tashkil etilgan qo'shma korxonalar go'shtlarni qayta ishlash, yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish, go'shtni qadoqlab va o'rab iste'molga chiqarish, bolalarga mo'ljallangan va parhez go'sht mahsulotlari tayyorlash kabi tadbirlarni amalga oshirish, aholi ta'minotini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi.

Go'sht bu so'yilgan mollarning so'yilgandan keyin tegishli ishlov berib terisi, bosh qismlari, oyoqlar va ichki organlari ajratilgan butun tanasi va uning qismlaridir.

Go'sht inson hayotida eng muhim ahamiyatga, ega, chunki u organizmni to'liq qiymatga ega bo'lgan oqsil va yog' moddalar bilan ta'minlashda asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, go'sht tarkibida uglevodlar, ekstraktiv moddalar, vitaminlar, fermentlar va mineral moddalar mavjud.

Go'shtning morfologik tarkibiga hayvon organizmining muskul, biriktiruvchi, yog' to'qimalari, qon va hokazolar kiradi. Bu to'qimalarning kimyoviy tarkibi, anatomik tuzilishi jihatidan bir xil emas, shu sababli ularning go'shtdagi miqdori va nisbati go'shtning ozuqaviy qiymatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shulardan muskul va yog' to'qimalari ozuqaviy qiymati bo'yicha eng qimmatli hisoblanadi.

Go'shtlarning kimyoviy tarkibi molning turiga, jinsiga, zotiga, semizligiga, qaysi sharoitda, qanday yemishlar bilan boqilishiga va

boshqa omillarga qarab ma'lum darajada o'zgarib turadi. Masalan, katta yoshdagi va semiz mollarning go'shti tarkibida yog' miqdori ko'proq, oqsillar va suv miqdori esa nisbatan kamroq bo'ladi. Mol go'shtida cho'chqa go'shtiga nisbatan oqsilning umumiy miqdori ko'proq, yog' miqdori esa kamroq bo'ladi va hokazo.

Har xil hayvon go'shtlari tarkibida oqsil miqdori 11,4 % dan 20,8% gacha oraliqda bo'ladi. Mol va qo'y go'shtlari tarkibida bu oqsillarning 75-85% foizi, cho'chqa go'shtida esa qariyb 90% foizi to'liq qiymatli oqsil hissasiga to'g'ri keladi. To'liq qiymatli, tez hazm bo'ladigan go'sht oqsillari (miozin, aktin, aktomiozin, miogen, mioalbumin) tarkibida o'rin almashtirmaydigan aminokislotalarning hammasi ham uchraydi. Bu oqsillar asosan go'shtning boshqa to'qimalariga nisbatan yuqori ozuqaviy va biologik qiymatga ega bo'lgan muskul to'qimasi tarkibida uchraydi. To'liq qiymatga ega bo'lmagan oqsil kollagen va elastin asosan biriktiruvchi to'qimalar tarkibiga kiradi. Muskul to'qimalari tarkibida esa ular juda kam miqdorda uchraydi.

Turli hayvonlar go'shti yog' miqdori bo'yicha molning semizligiga qarab bir-biridan katta farq qiladi va bu ko'rsatkich 2% dan 40% gacha oraliqda bo'lishi mumkin. Yog' go'shtlarning ta'm ko'rsatkichlari va energiya berish qobiliyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Tarkibida oqsil va yog' miqdori teng (har birining miqdori 20% ga yaqin) bo'lgan go'shtlar ozuqaviy qiymati bo'yicha eng yuqori hisoblanadi, chunki bunday go'shtlarning mazaligi yuqori va ular organizmda yaxshi hazm bo'ladi. Go'shtlar tarkibidagi yog'lar asosan to'yingan yog' kislotalaridan tashkil topgan bo'ladi.

Uglevodlar go'sht tarkibida asosan hayvon kraxmali-glikogen holida to'plagan bo'lib, ular asosan go'shtning yetilishida katta ahamiyatga ega. Go'shtda glikogen miqdori o'rtacha 0,8% ni, mollarning jigarida esa 2-5% ni tashkil etadi.

Ekstraktiv moddalar. Go'sht tarkibida azotli va azotsiz ekstraktiv moddalar uchraydi. Azotsiz ekstraktiv moddalarga glikogen va uning parchalanishidan hosil bo'lgan sut kislotasi, maltoza, glyukozalar kiradi. Azotli ekstraktiv moddalarga esa kreatin, kreatinfosfat, karnozin, glutamin kislotasi va boshqalar kiradi. Go'shtda bu moddalarning miqdori 1% ga yaqinni tashkil etadi. Ekstraktiv moddalar go'shtga o'ziga xos ta'm va hid berib, ishtahani ochib, ovqat hazm bo'lishiga yordam beradi.

Go'shtda suvda eruvchi va yog'da eruvchi vitaminlar ham bo'ladi. Go'shtning yog' to'qimasida asosan yog'da eruvchi A, D va E vitaminlari uchraydi. Mineral moddalar miqdori go'shtda 0,8% dan 1,3% gacha bo'ladi. Mineral moddalarning asosiy miqdorini kaliy va fosfor tashkil etadi. Shuningdek, go'shtda kalsiy, temir, magniy, rux, mis va boshqa elementlar ham borligi aniqlangan.

Fermentlar tirik hayvonlar organizmida moddalarning sintez bo'lishi va parchalanishida katta ahamiyatga ega bo'lsa, so'yilgan hayvonlar go'shtlarida esa moddalarning parchalanish jrayonlarida muhim rol o'ynaydi. Go'shtlar tarkibida oqsil, yog', uglevodlarni parchalaydigan fermentlar bilan bir qatorda, oksidlovchi-qaytaruvchi fermentlar ham mavjuddir. Bu fermentlarning ba'zilar esa go'shtning yetilishida ishtirok etadi. Go'shtda suv miqdori 48-78% ni tashkil etadi. Go'shtlarda suv miqdori ularning yog'liligi bilan teskari bog'lanishda bo'ladi. Go'sht hayvon organizmining muskul, yog', biriktiruvchi, suyak to'qimalari va qon singari har xil to'qimalardan tashkil topgandir.

Muskul to'qimalari-bu go'shtdagi asosiy to'qima hisoblanib, mol tanasining 50-75% ini tashkil qiladi. Go'shtning muskul to'qimasi urchuqsimon tolalardan va to'qimalar orasiga kiruvchi moddalardan tashkil topgan. Muskul tolalar biriktiruvchi to'qimalar yordamida dastadasta bo'lib birlashib, muskul hosil qiladi. Muskul to'qima ozuqaviy qiymati bo'yicha eng qimmatli to'qima hisoblanadi. To'liq qiymatli oqsillar asosan shu to'qima tarkibiga kiradi.

Biriktiruvchi to'qima alohida to'qimlarni bir-biri bilan bog'lab turadi. Biriktiruvchi to'qimalarning asosini kollagen va elastin tolalari tashkil etadi. Ular muskul to'qimasidan tarkibida asosan kollagen va elastin oqsillari borligi bilan farqlanadi. Ma'lumki, bu oqsillar to'liq qiymatga ega bo'lmagan oqsillar hisoblanadi. Biriktiruvchi to'qima mol tana massasining 9-12% ini tashkil etadi.

Yog' to'qimalari yog' hujayraliridan tashkil topadi. Mollarning qaysi joyida to'planishiga qarab yog' to'qimalari teri osti, ichki organlar (buyrak, yurak, ichak) atrofida va muskullar orasida ayrim qatlamlar ko'rinishida to'planadigan yog'larga bo'linadi. Yog' to'qimalari tarkibida yog'dan tashqari suv, oqsillar, shuningdek, mineral moddalar va vitaminlar bo'ladi.

Suyak to'qimasi hayvonlarning skeletini hosil qilib, murakkab biriktiruvchi to'qima hisoblanadi. Bu to'qima eng mustahkam to'qimadir. Skelet to'qimasi asosan noorganik moddalardan tashkil topgan bo'lib, ularning miqdori 70% gacha borishi mumkin. Ulardagi

asosiy mineral modda-kalsiy fosfat va kalsiy karbonat tuzlaridir. Suyaklar tarkibida birmuncha yogʻ, oqsil va ekstraktiv moddalar ham mavjud boʻladi.

Qon-suyuq toʻqima hisoblanib, yirik va mayda shoxli mollarda oʻrtacha 7% ni, choʻchqalarda esa 4,5% ni tashkil etadi. Qon asosan hujayra va qon plazmasidan tashkil topgan boʻladi. Qonning tarkibida toʻliq qiymatli moddalar mavjudligi uchun yuqori ozuqaviy ahamiyatga ega hisoblanadi. Qayta ishlangan qondan oziq-ovqat mahsulotlari va dorivor vositalar ishlab chiqarishda foydalaniladi.

Nazorat savollari:

1. Uglevodlar goʻsht tarkibida qanday holatda toʻplangan boʻladi?
2. Har xil hayvon goʻshtlari tarkibida oqsil miqdori necha foizgacha oraliqda boʻladi?
3. Turli hayvonlar goʻshti yogʻ miqdori boʻyicha molning semizligiga qarab necha foizgacha oraliqda boʻlishi mumkin?
4. Qon-suyuq toʻqima hisoblanib, yirik va mayda shoxli mollarda oʻrtacha necha foizni tashkil etadi?

Test savollar

1. Goʻsht bu

A) soʻyilgan mollarning soʻyilgandan keyin tegishli ishlov berib terisi, bosh qismlari, oyoqlar va ichki organlari ajratilgan butun tanasi va uning qismlaridir

B) organizmni toʻliq qiymatga ega boʻlgan oqsil va yogʻ moddalari bilan taʼminlashda asosiy manbalardan biri

C) soʻyilgan mollarning soʻyilgandan keyin tegishli ishlov berib terisi, ajratilgan butun tanasi va uning qismlaridir

D) hamma javoblar toʻgʻri

2. Goʻsht tarkibida qanday moddalar mavjud?

A) uglevodlar, ekstraktiv moddalar, vitaminlar, fermentlar va mineral

B) uglevodlar, muskul, vitaminlar, fermentlar va mineral

C) uglevodlar, ekstraktiv moddalar, vitaminlar,

D) uglevodlar, ekstraktiv moddalar, biriktiruvchi moddlar, fermentlar va mineral

3. Goʻshtlarning kimyoviy tarkibi qanday omillarga qarab maʼlum darajada oʻzgarib turadi?

A) molning turiga, jinsiga, zotiga, semizligiga, qaysi sharoitda, qanday yemishlar bilan boqilishiga va boshqa

B) molning turiga, jinsiga, zotiga, semizligiga, qaysi sharoitda boqilishi

C) molning turiga, jinsiga, qaysi sharoitda, qanday yemishlar bilan boqilishiga va boshqa

D) faqat molning zotiga, semizligiga,

4. Har xil hayvon go'shtlari tarkibida oqsil miqdori necha % dan necha % gacha oraliqda bo'ladi?

A) 11,4% dan 20,8% gacha

B) 10% dan 20% gacha

C) 15% dan 30% gacha

D) 11% dan 26,3% gacha

5. Cho'chqa go'shtida necha % to'la qiymatli oqsil mavjud?

A) 90

B) 40

C) 70

D) 80

6. Qaysi modda go'shtlarning ta'm ko'rsatkichlari va energiya berish qobiliyatiga katta ta'sir ko'rsatadi?

A) Yog'

B) Oqsil

C) Ekstraktive moddalar

D) Uglevodlar

7. Mollarning jigarida glikogen miqdori qancha?

A) 2-5%

B) 6-10%

C) 2-3%

D) 4-6%

14-amaliy mashg'ulot

SUT VA ACHITILGAN SUT MAHSULOTLARINING SIFAT TARKIBINI O'RGANISH.

Mashg'ulot rejasi:

- 14.1. Fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarni aniqlash.
- 14.2. Sariyog'ning sifatini aniqlash.
- 14.3. Pishloqlarning fizik va kimyoviy ko'rsatkichlari.

Mashg'ulotning maqsadi: Sut va achitilgan sut mahsulotlarining sifat tarkibini o'rganish.

Nazariy qism. Sut va sut mahsulotlarini xavfsizligiga bo'lgan talablar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- xomashyo, tayyor sut mahsulotlariga bo'lgan sanitariya qoidalari, me'yor va gigiyenik normativlar, veterinariya-sanitariya qoidalari va me'yorlar;

- sut va sut mahsulotlarini xavfsizligi bo'yicha qo'shimcha talablar;

- hom ashyo va mahsulotlarni jo'natish va saqlashga bo'lgan talablar;

- ekologik xavfsizligiga bo'lgan talablar.

O'zbekiston Respublikasi hududida muomilada bo'lgan sut va sut mahsulotlari o'rnatilgan yarog'lilik muddati doirasida va undan ko'p muddatda xavfsiz bo'lishi va texnik reglamentning 2-7 ilovalari talablariga muvofiq bo'lishi lozim.

Xom sut, xom yog'siz sut va xom qaymoqning fizik-kimyoviy xavfsizlik talablari, ulardagi potensial xavfli moddalar, mikroorganizmlar va somatik hujayralarning chegaraviy yo'l qo'yiladigan miqdorlari texnik reglamentni 2-chi ilovasida ko'rsatilgan chegaraviy yo'l qo'yiladigan me'yorlardan oshmasligi lozim.

Xom sutda veterinariya dori vositalarini qoldiqli miqdorini yo'l qo'yiladigan darajalari texnik reglamentni 3-chi ilovasida ko'rsatilgan yo'l qo'yiladigan me'yorlardan oshmasligi lozim.

Sut va sut mahsulotlari, ivitqilar, ozuqaviy muhitlar, fermentli preparatlarda potensial xavfli moddalar, mikroorganizmlarni yo'l qo'yiladigan miqdorlari texnik reglamentni 4 va 5-chi ilovalarida ko'rsatilgan chegaraviy yo'l qo'yiladigan me'yorlardan oshmasligi lozim.

Sut va sut mahsulotlarini fizik-kimyoviy va mikrobiologik ko'rsatkichlari texnik reglamentning 7 ilovasi talablariga muvofiq bo'lishi lozim.

Sigir tuqqanidan keyin birinchi 7 kun va sutdan chiqarishdan oldingi kamida uch xafta davomida sog'ib olingan sut, kasal va karantinda bo'lgan hayvonlardan olingan sut ozuqaviy maqsadlarga qabul qilinmaydi.

Xom sigir suti infeksiyon, odam va hayvonlar uchun umumiy bo'lgan boshqa kasalliklar xavfi bo'lmagan xududda sog'lom hayvonlardan olingan bo'lishi kerak.

Sut xo'jaliklarda, sog'ib olingandan keyin 2 soatdan kechiktirilmagan, $4 \pm 2^{\circ}\text{C}$ xaroratgacha sovutiladi.

Ishlab chiqarish xonalari, jixozlar, inventar, tara, transport vositalarini yuvish va dezinfeksiyalash sut va sut mahsulotlari xavfsizligini ta'minlashi, ularni mumkin bo'lgan ifloslanishi oldini olishi kerak.

Sut sanoatini barcha ishchilari ishga kirishida dastlabki tibbiy ko'rikdan va keyinchalik esa davriy tibbiy ko'riklardan o'tishlari lozim.

Ishlab chiqarish jarayonlarini xavfsizligiga quyidagilar natijasida erishiladi:

- texnologik jarayonlar, shuningdek usul, ish rejimlarini ishlab chiqarish jixozlariga xizmat ko'rsatish tartibida foydalanish;
- ishchilar qulayligi talablariga javob beruvchi ishlab chiqarish xonalaridan foydalanish;
- jarohatlanish va ishlab chiqarish kasalliklari manbai hisoblanmaydigan ishlab chiqarish jihozlaridan foydalanish;
- ishonchli ishlaydigan va doimiy tekshiriladigan nazorat-o'lchov asboblari, avariya himoyalash qurilmalaridan foydalanish;
- ishchilarni kasbiy tanlash, o'qitish, ularni mehnat xavfsizligi bo'yicha bilimlari va ko'nikmalarini tekshirish orqali;
- ishchilarni himoyalash vositalarini qo'llash orqali.

Sut va sut mahsulotlarini xavfsizligi bo'yicha qo'shimcha talablar

Sut va sut mahsulotlarini xavfsizligi bo'yicha qo'shimcha talablar quyidagilardan iborat:

- sut va sut mahsulotlarini ishlab chiqarishda ishlab chiqarishda foydalaniladigan xomashyo va yordamchi materiallar ularni kelib chiqishini tasdiqlovchi jo'natish hujjatlariga ega bo'lishi lozim. Xavfsizlik ko'rsatkichlari bo'yicha ular texnik tartibga solish sohasidagi me'yoriy hujjatlar bilan belgilangan talablarga javob berishi lozim;

- sut asosidagi bolalar ovqatlanishi mahsulotlari va xomashyo ionizatsiyalovchi nurlanish bilan ishlov berilmasligi lozim;

- foydalanishga tayyor ivitqilar va probiotik mikroorganizmlar boshqalaridan hududiy ajratilgan, izolyatsiyalangan ishlab chiqarish xonalarida ishlab chiqarilgan bo'lishi kerak;

- sut mahsulotlarini ishlab chiqarishda foydalaniladigan fermentli preparatlar aniq texnologik jarayon uchun zarur bo'ladigan aktivlik va tanlanma xususiyatlarga ega bo'lishi lozim;

- sut va sut mahsulotlarini ishlab chiqarishda ishlatiladigan texnologik jixozlar, quvurlar, saqlash va jo'natish idishlari va inventar texnik reglament talablariga javob beradigan mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydigan, ularni yuvish, tozalash va dezinfeksiyalash imkonini beradigan, oziq-ovqat bilan kontaktida bo'lishi ruxsat etilgan materialdan tayyorlangan, sut va sut mahsulotlari bilan kontaktida bo'ladigan ishchi yuzalari tekis va adsorbsiya qilmaydigan materialdan tayyorlangan konstruktiv va ekspluatatsion tavsiflarga ega bo'lishi kerak.

Sut va sut mahsulotlarini jo'natish va saqlashga bo'lgan talablar

Xom sut va uni qayta ishlash mahsulotlarini tashish uchun tez buziluvchan yuklarni tashish qoidalariga mos keluvchi va ularni xavfsizligini ta'minlovchi maxsus transport vositalaridan (sovutiladigan kuzovlar, refrijeratorlar) foydalanilishi kerak.

Xom sut, sut va sut mahsulotlarini jo'natish ishlab chiqaruvchi tomonidan tashish sharoitlarini hisobga olgan holda texnologik hujjatlarda belgilangan saqlash sharoitlari va jo'natish usullariga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

Xom sutni tashishga mo'ljallangan transport vositalarini konstruksiyasi ifloslanishidan asrashi, shuningdek ularni tozalash va yuvish imkoniyatini ta'minlashi lozim. Sut va sut mahsulotlarini barqaror (begona) xid va uning o'ramini ifloslantiradigan yuklar bilan birga tashilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Jo'natish va saqlashda sut va sut mahsulotlari ularni kelib chiqishi, xavfsizligi, saqlash sharoitlari va saqlash muddatlarini tasdiqlovchi hujjatlar bilan birga uzatib borilishi kerak. Sut va sut mahsulotlarini realizatsiya qilinishi jarayonida ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan saqlash sharoitlariga rioya qilinishi kerak.

Nazorat savollari:

1. Sut va sut mahsulotlariga bo'lgan sanitariya qoidalari, me'yorlar va gigiyenik me'yorlar, veterinariya-sanitariya qoidalari va me'yorlar.

2. Sut va sut mahsulotlarini xavfsizligi bo'yicha qo'shimcha talablar.

3. Sut va sut mahsulotlarini jo'natish va saqlashga bo'lgan talablar.

Test savollari

1. O'zbekiston Respublikasi hududida muomilada bo'lgan sut va sut mahsulotlari o'rnatilgan yarog'lilik muddati doirasida va undan ko'p muddatda xavfsiz bo'lishi va texnik reglamentning qaysi ilovalari talablariga muvofiq bo'lishi lozim?

- A) 2-7
- B) 6-9
- C) 5-10
- D) 8-15

2. Sut va sut mahsulotlarini qaysi ko'rsatkichlari texnik reglamentning 7 ilovasi talablariga muvofiq bo'lishi lozim?

- A) fizik-kimyoviy va mikrobiologik
- B) fizik va kimyoviy
- C) mikrobiologik
- D) fizik va mikrobiologik

3. Qanday sutlar ozuqaviy maqsadlarda qabul qilinmaydi?

- A) Hamma javoblar to'g'ri
- B) Sigir tuqqanidan keyin birinchi 7 kun davomida sog'ib olingan sut
- C) Sutdan chiqarishdan oldingi kamida uch hafta davomida sog'ib olingan sut

D) kasal va karantinda bo'lgan hayvonlardan olingan sut

4. Sut xo'jaliklarda, sog'ib olingandan keyin 2 soatdan kechiktirilmasdan, nechi $^{\circ}\text{C}$ xaroratgacha sovutiladi?

- A) 4 ± 2
- B) 4 ± 6
- C) 5 ± 7
- D) 7 ± 9

5. Xom sut va uni qayta ishlash mahsulotlarini tashish uchun tez buziluvchan yuklarni tashish qoidalariga mos keluvchi va ularni xavfsizligini ta'minlovchi maxsus transport vositalaridan qaysilarida foydalanish kerak?

- A) B va C javob to'g'ri
- B) sovutiladigan kuzovlar,
- C) refrijeratorlar
- D) katta yuk mashinalarida

6. Sut va sut mahsulotlari, ivitqilar, ozuqaviy muhitlar, fermentli preparatlarda potensial xavfli moddalar, mikroorganizmlarni yoʻl qoʻyladigan miqdorlari texnik reglamentni nechinchi ilovalarida koʻrsatilgan chegaraviy yoʻl qoʻyladigan meʼyorlardan oshmasligi lozim.

- A) 4 va 5-chi
- B) 5 va 7-chi
- C) 6 va 10-chi
- D) 8 va 9-chi

7. Xom sutda veterinariya dori vositalarini qoldiqli miqdorini yoʻl qoʻyladigan darajalari texnik reglamentni nechinchi ilovasida koʻrsatilgan yoʻl qoʻyladigan meʼyorlardan oshmasligi lozim?

- A) 3
- B) 4
- C) 1
- D) 2

15-amaliy mashg'ulot
CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI
QALBAKILASHTIRISH VA IDENTIFIKATSIYA QILISH.

Mashg'ulot rejasi:

15.1. Sut va sut mahsulotlarini soxtalashtirishni tahlil qilish

15.2. Go'sht mahsulotlarini soxtalashtirishni o'rganish

15.3. Soxtalashtirishga qarshi kurash usullarini o'rganish.

Mashg'ulotning maqsadi: Chorvachilik mahsulotlarini qalbakilashtirish va identifikatsiya qilishni o'rganish

Nazariy qism. Oziq-ovqat mahsulotlarini zaruriy sifat darajasini ta'minlashning tarkibiy qismlaridan biri identifikatsiya hisoblanadi. Identifikatsiya bu tovarni markirovkasi va/yoki uzatuvchi hujjatlarda yoki boshqa informatsiya vositalarida ko'rsatilgan tavsiflarini unga qo'yiladigan talablarga muvofiqligini belgilash hisoblanadi.

Tovarlarni identifikatsiyalashning amalga oshiruvchi subyektlar tayyorlovchi, sotuvchi va xaridor hisoblanadi.

Mo'ljallanishi bo'yicha assortimentli, sifat va partiyali identifikatsiya farqlanadi.

Identifikatsiyalash mezonlari uch guruhdagi ko'rsatkichlarni qamraydi:

organoleptik;

fizik-kimyoviy;

mikrobiologik.

Oziq-ovqat mahsulotlarini qalbakilashtirilishi.

Qalbakilashtirish xaridor va/yoki sotuvchini sotib olish sotish ob'ektini qabix niyatda soxtalashtirish orqali aldashga qaratilgan xarakatlar hisoblanadi.

Qalbakilashtirishda tovarni bir yoki bir necha tavsiflari soxtalashtiriladi. Shu sababli quyidagi qalbakilashtirish turlari farqlanadi:

assortimentli (turi);

sifatiy;

miqdoriy;

qiymatli;

informatsion;

texnologik.

Oziq-ovqat mahsulotlarini markirovkalanishi. O'rash materiallari.

